

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MOLIYAVIY MENEJMENT FAKULTETI

“MENEJMENT VA MARKETING” KAFEDRASI

NURMATOV QILICHBEK BAXTIYOROVICH

**«FERMER XO'JALIKLARI FAOLIYATINI SAMARALI
BOSHQARISH MEXANIZMI»**

5340200 -“ Menejment” yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun
yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

«Menejment va marketing»

kafedra mudiri

_____ i.f.d., prof. Nazarova F.X

« ____ » _____ 2013 yil

Ilmiy rahbar: _____ i.f.n. Saydaxmedov O.A

« ____ » _____ 2013 yil

TOSHKENT - 2013

MUNDARIJA

KIRISH	3
1 BOB. FERMER XO’JALIKLARI FAOLIYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	6
1.1. Fermer xo’jaliklarini boshqarishning nazariy asoslari va iqtisodiy ahamiyati.....	6
1.2. Fermer xo’jaliklarini tashkil etishning o’ziga xos tamoyillari va xususiyatlari.....	13
1.3. Fermer xo’jaliklarini boshqarishdagi o’zgarishlar va uni amalga oshirish davrlari.....	20
2 BOB. “QILICHBEK QAHRAMON” FERMER XO’JALIGINING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINING TAHLILI	24
2.1. “Qilichbek Qahramon” fermer xo’jaligi boshqaruv faoliyati tahlili.....	24
2.2. “Qilichbek Qahramon” fermer xo’jaligi rivojlanishinig joriy holatini tahlili.....	31
2.3. “Qilichbek Qahramon” fermer xo’jaligining iqtisodiy ko’rsatkichlari tahlili.....	36
3 BOB. IQTISODIYOTNI DIVERSIFIKATSIYALASH SHAROITIDA FERMER XO’JALIKLARI FAOLIYATINI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	39
3.1. Fermer xo’jaliklarini boshqarishning xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	39
3.2. Fermer xo’jaliklari faoliyatida innovatsion jarayonni boshqarish mexanizmini rivojlantirish.....	46
3.3. Iqtisodiyotni divertsifikatsiyalash sharoitida fermer xo’jaliklarini boshqarish mexanizmini takomillashtirishning ustuvor yo’nalishlari.....	49
Xulosa	55
Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati	58

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston agrar sohasida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida mulk davlat tasarrufidan chiqarilib, xo'jalik yuritishning nodavlat shakllari vujudga keltirildi va bugungi kunda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy qismi fermer va dehqon xo'jaliklari tomonidan etishtirilmoqda. Fermer xo'jaliklarining boshqarish mexanizmini bozor munosabatlariga moslashtirilib, rivojlanishning innovatsion yo'nalishiga o'tkazilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "...fermerlik harakatini qo'llab-quvvatlash uchun huquqiy, tashkiliy hamda moliyaviy shart-sharoitlarni tug'dirib berish bunday yuksak natijalarni qo'lga kiritishda hal qiluvchi omil bo'lmoqda" deya t'kidlagan edilar¹.

Qishloq xo'jaligi yalpi ichki mahsulotida fermer xo'jaliklari ulushi muntazam ravishda oshirib borilmoqda. Fermerlar tomonidan strategik ahamiyatga ega bo'lgan paxta va bug'doyning asosiy qismi etishtirilib davlat buyurtmalari bajarilishi 100 foiz ular hissasiga to'g'ri kelmoqda. Shu bois, mamlakat rahbari va hukumati tomonidan fermerlar faoliyatini yanada takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilib, muhim chora-tadbirlar belgilanmoqda. Jumladan, «Fermer xo'jaliklari to'g'risida»²gi qonun qabul qilinib, ushbu qonun ikki marotaba qayta ko'rib chiqildi va takomillashtirildi. Hozirgi kunda bu qonunga fermerlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qator moddalar qo'shish ustida ishlar olib borilmoqda. Davlat buyurtmasi bo'yicha mahsulot etishtirayotgan fermerlarga maqsadli imtiyozli (yillik 3%) kreditlar ajratilmoqda. Ularni markazlashtirilgan tarzda resurslar (mineral o'g'itlar, yoqilg'i-moylash materiallari, urug'lik, texnika) bilan ta'minlash yo'lga qo'yilgan. Fermerlarga servis xizmatlari ko'rsatuvchi turli yo'nalishdagi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2012 yilda respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.

² O'zbekiston Fermer xo'jaliklari uyushmasi, OSCE Evropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, "O'zbekistonda fermer xo'jaligini yuritish asoslari", "Voriz-Nashriyot", Toshkent-2007 yil, 29-bet.

korxonalar tashkil qilingan bo'lib, ularning servis xizmat hajmi muntazam ravishda oshirilib borilmoqda.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti. O'zbekiston Respublikasi agrar sohasidagi fermer xo'jaliklarining boshqaruv faoliyati jumladan, "Qilichbek Qahramon" fermer xo'jaligi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. O'zbekiston Respublikasi fermer xo'jaliklari faoliyatini boshqarish tizimidagi iqtisodiy munosabatlar mexanizmini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan ilmiy izlanishlar natijalari tadqiqotning predmeti hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Fermer xo'jaliklari faoliyatida samarali boshqarish mexanizmini tashkil qilish hamda ularni rivojlantirishda menejment tizimining hozirgi holatini tahlil qilish asosida fermer xo'jaligini rivojlantirish masalasida menejment rolini oshirish uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqiptan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari. Ishning maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagilar tadqiqot vazifalari, deb belgilandi va hal etildi:

- fermer xo'jaliklari faoliyatini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillarini asoslash;

- fermer xo'jaliklarini boshqarishning huquqiy-me'yoriy asoslarini tadqiqot qilish va uni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- fermer xo'jaliklarida mahsulotni tayyorlash, qayta ishlash, sotishni amalga oshiruvchi hududiy birlashmalarning tashkiliy tuzilmalarini va ularning faoliyat ko'rsatish mexanizmini ishlab chiqish;

- fermerlarga xizmat ko'rsatadigan infratuzilmalarning samarali faoliyat ko'rsatishiga oid tavsiya va takliflar ishlab chiqish.

- fermer xo'jaliklarida boshqarishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Ishda keltirib o'tilgan xulosa va takliflardan respublikamiz fermer xo'jaliklarining boshqarish

mexanizmini, shuningdek, xo'jaliklarining innovatsion boshqarish tizimini takomillashtirish va samaradorligini oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi kirish, mazmunan o'zaro bog'langan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat, umumiy hajmi 66 bet, 10 ta jadval, ettita rasmdan tashkil topgan.

1 BOB. FERMER XO'JALIKLARI FAOLIYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

1.1. Fermer xo'jaliklarini boshqarishning nazariy asoslari va iqtisodiy ahamiyati

Fermer xo'jaligi - o'ziga uzoq muddatli ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda, qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi a'zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik shaxs huquqlariga ega mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ektdir.

Fermer xo'jaligi mehnat shartnomasi asosida boshqa shaxslarni ishga yollashi mumkin. Yollanma ishchilar fermer do'jaligining a'zolari hisoblanishmaydi. Fermer xo'jaligining boshlig'i shu xo'jalikning 18 yoshga to'lgan, qishloq xo'jaligi sohalari bo'yicha tegishli malaka, mutaxassislik, ish tajribasiga ega bo'lgan, muomalaga layoqatli a'zolaridan biri tanlanadi. Fermer xo'jaligi boshlig'i vaqtinchalik ish qobiliyatini yo'qotganda yoki uzoq vaqt bo'lmaganda u o'z vazifasini bajarish vakolatini shu xo'jalik a'zolaridan biriga beradi.

Fermer xo'jaliklari quyidagi shartnomalar asosida ish yuritadi. Hadya qilish shartnomasi, qarz shartnomasi, kredit shartnomasi, yetkazib berish shartnomasi, oldi-sotdi shartnomasi, ko'chmas mulkni sotish shartnomasi.

Shartnoma shartlari noaniq bo'lsa, natijada ishlovchilarda javobgarlik ma'suliyati yetarli bo'lmaydi. Bu albatta, kelgusida, shartnomaning bajarilmasligiga olib keladi. Hosil ham, daromad ham shunga yarasha bo'ladi.

Fermer xo'jaligini boshqarish boshqa turdagi korxonalarni boshqarishdan qisman farq qiladi. Boshqarishning asosiy vazifalari, printsiplari va usullari bir xil, lekin ular turli korxonalarda turlicha qo'llaniladi. Farqi shundaki, korxonalarining hajmi va faoliyati boshqalarnikidan farq qiladi. Ishlab chiqarishi tashqarida joylashgan fermer xo'jaligini yuritish murakkab va tavakkal qilishni, talab yetadi, bunga sabab mahsulot va narxning o'zgaruvchanligi hamda ob-havoning ishlab chiqarish jarayoniga ta'siri etishidir. Bundan tashqari katta

fermer ho'jaliklarida (masalan, shirkatlar, fermer kooperativlarida) ishchilar uchun o'z mutaxassisliklari bo'yicha ish topishlari va boshqaruv vazifalarini amalga oshirishlari murakkab.

Fermer xo'jaligi boshlig'i birinchi navbatda bajaradigan vazifasi korxonaning maqsadini belgilab olish demakdir. Maqsadlarsiz boshqaruvga oid qarorlarni qabul qilib bo'lmaydi. Maqsadlar shunday narsani, ular yordamida resurslardan foydalanishning bir muqobil yo'lini ikkinchisidan qaysi afzallik tomoni bilan ajralib turishini aniqlash mumkin.

Mamlakat agrar sohasida faoliyat yurituvchi xo'jaliklarda boshqaruv mexanizmini shakllantirishda avvalo, boshqaruvni iqtisodiy mexanizmga asoslangan holda tashkil qilish, buning uchun esa xo'jalik rahbarlari dastlab mukammal bo'lgan biznes-reja tuzishi, xodimlarga funktsional vazifalar belgilab berilgan holda ish topshirishlari va ularni boshqarishdagi ishtirokini ta'minlashi, maqsadli kredit olish va qaytarish hamda servis xizmati ko'rsatish korxonalari bilan iqtisodiy munosabatlarni shartnoma asosida yo'lga qo'yishlari lozim bo'ladi. Boshqarishning iqtisodiy uslubi xo'jalik (korxonada) normal faoliyat yuritishi va rivojlanishi uchun kerakli shart-sharoit yaratishga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlar majmuasi yig'indisini tashkil qiladi. Xo'jalik rivojlanishining iqtisodiy mexanizmi tijorat hisob-kitob ishlaridan samarali foydalanishga asoslanadi.


Ma'lumki, xo'jaliklar mulk shaklining o'zgarishi va moliyaviy mustaqillikka erishishi, korxonaning asosiy fondi shakllanishi va foyda taqsimlanishini mustaqil hal qilishi boshqarishning iqtisodiy uslubiyati roli oshirilishini taqozo etmoqda. Bu, o'z navbatida, ishlab chiqarishning iqtisodiy natijalariga bo'lgan javobgarligini kuchaytirmoqda. Har bir korxonada, uning har bir bo'g'inida tijorat hisob-kitoblari rivojlanishi undagi tadbirkorlik menejmenti (boshqarish) rivojlanish darajasiga qarab amalga oshiriladi. Marketing xizmati rejalashtirish bo'limiga mahsulotga bo'lgan talab qay darajadali, qaysi turiga talab yuqoriligi, mahsulot turlariga qarab belgilangan narx-navo, bo'nak, tovar uchun kredit, lizing, imtiyozli kredit va hokazolar

haqidagi ma'lumotlarni yetkazib beradi. O'z navbatida, rejalashtirish bo'limi mahsulot ishlab chiqarish hajmi, uning turlari haqida bir necha variantdagi topshiriqlarni tayyorlaydi, bunda ekin turlarini bir necha xil bo'lishi (agronomlar bilan kelishilgan holda) aniqlab chiqilib, rahbariyat bilan ekiladigan ekinlar strukturasi kelishiladi, va ishlab chiqarish texnologiyasi belgilab olinadi. Shundan keyin rejalashtirish bo'limi barcha resurslarga bo'lgan talabni aniqlaydi.

Iqtisodiy uslubiyat boshqarishda moliyaviy siyosatni, shu asosda investitsiya siyosatini belgilab olishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu uslubda qarz olish (kredit)ga bo'lgan talab ham asoslanadi. Moliyaviy strategiyaga mos ravishda, maqbul soliq siyosati shakllanadi, uning asosiy tomonlari korxonaning hisob-kitob siyosati bo'yicha belgilab olinadi. Bu tadbirlarning barchasi rejalashtirish, moliya, buxgalteriya hisob-kitobi hamda yuridik bo'limlar yoki shu sohalarga mas'ul bo'lgan mutaxassislar bilan kelishib olinadi.

Tijorat hisob-kitob uslubiyati mahsulot ishlab chiqaruvchilarni xo'jalikdan tashqaridagilar bilan aloqalarini tartibga solish, xo'jalik ishlarini yuqori foyda olishga qaratilgan samarali ish yuritish, xo'jalikda ishlab chiqarishni faqatgina kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosida olib borishni ta'minlaydi.

Bundan tashqari xo'jalikda xarajatlarni boshqarishda ham xodimlardan oqilona foydalanishni tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni xo'jalik bevosita shartnoma asosida hamkorlik qiluvchi korxonalar bilan bo'ladigan munosabatlar bo'yicha xo'jalik a'zolari ichidan ularning qobiliyatiga qarab turli masalalar yuzasidan ma'sul xodimlar tayinlanishi hamda ular ustidan xo'jalik rahbari nazorat olib borishi lozim. Chunki xo'jalik rahbari bir vaqtning o'zida quyidagi rasmda keltirilgan korxonalar bilan shug'ullanishi uchun imkoniyati cheklangan va bu o'z navbatida xarajatlarni samarali boshqarishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek xo'jalik xarajatlarni biz taklif etayotgan mexanizm asosida boshqarishni tashkil qilish xar bir fermer xo'jaligi yoki fermer xo'jaligi rahbari uchun xam maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz (1-rasm).



1-rasm. Fermer xo'jaliklarida xarajatlarni boshqarish mexanizmi³

Fermer xo'jaliklari, xo'jalik yuritish va tadbirkorlikning ilg'or shakllaridan biri hisoblanadi. U o'zining ishlab chiqarish faoliyatini davlat tomonidan uzoq muddatga ijaraga berilgan erda mavjud qonunlar asosida amalga oshiradi. Mustaqil ravishda boshqa yuridik shaxslar bilan mahsulotni sotish bo'yicha shartnomalar tuzadi, o'z mahsulotiga baho belgilaydi, soliq to'lanadigan daromad oladi, boshqa shaxslarning mulklarini mablag'larini shartnomalar asosida qarz oladi va ishlatadi⁴. Bunday xo'jalik yuritishning afzalligi shundaki, mulkdor ham, tadbirkor ham, xizmatchi ham bitta shaxs timsolida bo'ladi. Shuning uchun ishlab chiqarish natijalari uchun manfaatdorlik va ma'suliyat keskin ortadi.

Fermer ishlab chiqarishda o'zini-o'zi boshqaradi va nazorat qiladi, ya'ni bajarish va boshqarish vazifalari bir kishi qo'lida bo'ladi. Bu hol oddiy

³ O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi ma'lumotlari asosida.

⁴ B.A.Akramov va boshqalar. Qishloqda fermer xo'jaliklarini yuzaga kelishi va rivojlanishining asosiy tamoyillarini belgilash: uslubiy qo'llanma. – T., 2007. – b. 23.

dehqonning yaratuvchanlik imkoniyatlarini to'liqroq namoyon etishi va amalga oshirishi uchun keng yo'l ochib beradi.

Boshqaruv bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, ishlab chiqarish yuzasidan resurslardan samarali foydalanishning ichki imkoniyatlarini aniqlashning muhim masalalarini o'z ichiga oladi. Unda xo'jalikning ishlab chiqarish va tijorat faoliyati yuzasidan biznes reja-topshiriqlarining bajarilishi, ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning holati, imkoniyatlari va ularni maqsadli boshqarishdagi muhim yo'nalishlari belgilanadi.

Boshqarishning to'g'ri tashkil etilishi esa har jihatdan xo'jalikni boshqaruvchi shaxsni kim ekanligi va uning boshqaruv malakasiga bog'liqdir.

Boshqarishdagi umumiy jarayonda har bir komponent joyini ko'rsatadi. Fermer xo'jaligining biznes-menejment jarayoni diagramma tarzida ishlab chiqilsa fermer xo'jaligining biznes-menejmentini ishlab chiqishda foydali hisoblanadi⁵.

Qishloq xo'jalik korxonalarida menejment usullari iqtisodiy tashkiliy, boshqaruv, ijtimoiy, ruhiy, huquqiy tarzlarda namoyon bo'ladi. Iqtisodiy usulda hisob-kitoblar amal qiladigan bo'lsa, tashkiliy usulda mehnat taqsimoti va boshqaruv usulida ma'muriy boshqaruv jarayoni vujudga keladi, ijtimoiy usulda inson turmush tarzi va talabi, madaniyati mujassamlashgan bo'lsa, ruhiy kechinmalari va insonni qo'llab quvvatlash shuningdek huquqiy usul boshqaruv munosabatlarining asosini tashkil etadi. Korxonani samarali boshqarishda ko'pincha menejment maqsadlari shakllantiriladi va natijalar sistemali baholanadi.

Menejmentning maqsadi deyarli xarajatlarni kamaytirish, maksimal foyda olish, ehtiyojlarni maksimal qondirishdan iborat bo'ladi. Qishloq xo'jaligi menejmentida maqsadlar belgilashda rejalashtirish dastlabki faoliyat bo'lib hisoblanadi. Bu qarorlar o'zaro bog'liq bo'lganligi sababli ular alohida

⁵ Abdullaev A., Aybeshov X. Fermer xo'jaligi iqtisodi. – T.: «Aloqachi», 2008. – b. 72.

ko'rilmaydi. Bu qarorlarga ta'sir etuvchi bir qancha omillar ya'ni bozor xususiyatlari, menejment faoliyati va agronomik talablardir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kuchli raqobatning mavjudligini hisobga olib, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning bozorbop, xaridorgir bo'lishini ta'minlashi kerak. Agar mahsulot xaridorgir bo'lsa, savdo-sotiq joylari yoki bozor to'g'risidagi ma'lumotlar ishlab chiqaruvchiga etib boradi. Ko'pincha bu ma'lumotlar aniq bo'lmasligi mumkin, shuning uchun fermerning o'zi bozorga borib ma'lumotlarni aniqlashi kerak bo'ladi. Bu jarayon bozorni o'rganish deb ataladi. Qishloq xo'jaligi menejmentida nima ishlab chiqarish, qancha ishlab chiqarish, qanday ishlab chiqarish masalalariga bozor omillarining bog'liqligi ham o'rganilib chiqiladi. Shuningdek ushbu masalalarga bozor talablari, boshqaruv talablari ham ta'sir ko'rsatadi.

Bozor sharoitida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishidan menejer markazlashtirilgan agrotizm sharoitidagi rahbaridan tubdan farq qiladi. Talab-ehhtiyoj iqtisodga ta'siri kattalashgan sari bozor kuchlari o'z ta'sirini ko'rsatishadi. Asosiy kuchni sarf qilishiga qarab fermer va qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar talabiga tez javob berishlariga to'g'ri keladi. Fermer va tashabbuskorlarga davlat, nima ishlab chiqarish kerakligini majbur qilmaydi. Bu shuni anglatadiki "yangi" boshqaruvchilar qishloq xo'jalik korxonalarini menejerlari ko'p yechimlarini mustaqil ravishda qabul etishga majbur bo'lib qoladi. Katta yirik xo'jaliklarda menejerlar rahbarga bo'ysunib hisobot berishadi, bunga qaramay ularga katta talab berilgan, bu bilan birga majburiyatlar ham katta. Ular funksional kengayadi, qo'yilgan masalalarni echish, biznes rejaga uni kiritish, nazorat qilishga javob berishadi.

Xususiy fermerlarga oldin topib bo'lmagan qishloq xo'jalik biznes menejment malakalarini o'zlashtirishga to'g'ri keladi. Fermer korxonasi sifatida ishlashi kerak, faqat "hayot obrazi" bo'libgina qolmay menejer yoki zamonaviy fermerlar ishlash mexanizmi bilan tanishish kerak.

Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik faoliyatining va sub'ektlarining tijoratchi korxonalariga bo'linishi ularning mulkiy huquqi va faoliyatining xususiyatlariga qarab belgilanadi. Umumiy qoidaga ko'ra, tijoratchi tashkilotning asosiy maqsadi foyda olish va muassasalar o'rtasida taqsimlashdan iborat.

Fermer xo'jaliklarini tashkil etilishi va rivojlanishi qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda, umladan, ko'pukladli iqtisodiyotning shakllanishiga hamda uning asosiy bo'g'ini hisoblanmish xususiy mulkchilikka asoslangan qishloq xo'jalik korxonalari yuzaga kelishiga poydevor yaratadi va ular bozor talablariga mos keluvchi xo'jalik siftida e'tirof etiladi.

Fermer xo'jaliklari xo'jalik yuritish va tadbirkorlikning ilg'or shakllaridan biri hisoblanadi. U o'zining ishlab chiqarish faoliyatini davlat tomonidan uzoq muddatga ijaraga berilgan erda mavjud qonunlar asosida amalga oshiradi. Mustaqil ravishda boshqa yuridik shaxslar bilan mahsulotni sotish bo'yicha shartnomalar tuzadi, o'z mahsulotga baho belgilaydi, soliq to'lanadigan daromad oladi, boshqa shaxslarning mulklarini, mablag'larini shartnomalar asosida qarz oladi va ishlatadi. Bunda xo'jalik yuritishning afzalligi shundaki, mulkdor ham bitta shaxs timsolida bo'ladi. Shuning uchun ishlab chiqarish natijalari uchun manfaatdorlik va ma'suliyat keskin ortadi.

Fermer ishlab chiqarishda o'zini-o'zi boshqaradi va nazorat qiladi, ya'ni bajarish va boshqarish vazifalari bir kishi qo'lida bo'ladi. Bu xol oddiy dehqonning yaratuvchanlik imkoniyatlarini to'liqroq namoyon etishi va amalga oshirishi uchun keng yo'l ochib beradi. Fermer tashkilotchi rahbarga qaraganda ko'proq tashabbuskor va tadbirkordir. U fermer xo'jaligida yuzaga kelgan smehnat yaizolarini qat'iyat bilan hal etadi. Bu erda munosabatlar ham mehnat qonunchiligiga ham ahloqiy me'yorlarga asoslanadi. Yuqoridagilarga asoslangan holda aytish mumkinki, fermer xo'jaligi bozor sharoitida ishlab chiqarishdagi muammolarni oson hal etish, yashab ketish, o'zini o'nglab olish va barqarorlik imkoniyatlariga ko'proq ega bo'ladi.

Shu sababli keyingi yillarda mamlakatimizda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish davlat dasturi darajasida amalga oshirilmoqda.

1.2. Fermer xo'jaliklarini tashkil etishning o'ziga xos tamoyillari va xususiyatlari


Respublikamizda mustaqillikning dastlabki yillarida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarga va bugungi kunda agrar sohada olib borilayotgan iqtisodiy jarayonga nazar tashlaydigan bo'lsak, qishloq xo'jaligini quyidagi yo'nalishlari bosqichma-bosqich erkinlashtirilishi. Ya'ni:

- ishlab chiqarish munosabatlari;
- yer munosabatlari va erdan foydalanish;
- qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish, tayyorlov tizimlari;
- qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarni kreditlash tizimi va baholarni tartibga solish;
- qishloq xo'jaligida mahsulotlarni taqsimlanishi o'zining ijobiy natijalarini berib kelmoqda.

Agrar sohada bozor munosabatlarini keng joriy etish uchun bozor tamoyillariga mos bo'lgan va qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarning faoliyatiga mustaqillik va erkinlik jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan, asosiy chora-tadbirlarni ishlab chiqishdan iborat. Bu esa bevosita qishloq xo'jaligida bozorga xos sog'lom raqobat muhitning shakllanishi va barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Fermer xo'jaliklarida asosiy boshqaruv jarayonlarini quyidagicha sharoitlarda nomoyon bo'ladi (2-rasm).

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishib, halq xo'jaligini bozor munosabatlariga o'tkazish maqsadida kerakli iqtisodiy islohotlar amalga oshirilib, respublikada bozor iqtisodiyoti shakllanishiga erishdi. Respublikaning sotsial - iqtisodiy rivojlanishidagi ob'ektiv shart-sharoitlarni, xususiyatlarni e'tiborga olgan holda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda qishloq xo'jaligiga katta e'tibor berilmoqda. Shu bilan bir qatorda mamlakatimizda fermer xo'jaliklariga katta etibor berilib, keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bugungi kunda fermer xo'jaliklari keng yo'l ochilib ularning sonlari tobora ko'payib bormoqda.



2-rasm. Fermer xo'jaligi boshqaruvining asosiy jarayonlari⁶

Qishloq xo'jaligi respublika halq xo'jaligi majmuasining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi:

- qishloq xo'jaligining rivojlanishi halq xo'jaligining ko'p tarmoqlarini har-xil xom-ashyolar bilan respublika aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlaydi. Qishloq xo'jalik mahsulotlaridan 75 foizi halq iste'mol mollari ishlab chiqariladi;

- qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish irrigatsiya-sug'orish va melioratsiya tizimlari bilan bog'liq. Qishloq xo'jaligining 95 foiz mahsuloti sug'oriladigan yerlardan olinadi. Demak qishloq xo'jaligida bevosita ishlab chiqarish muammolari bilan birga yerlardagi irrigatsiya va melioratsiya muammolari ham kerakli darajada yechimini topadi.

Yuqorida keltirilgan xususiyatlarni amalga oshirish qishloq xo'jaligi ahamiyatini oshiradi. Qishloq xo'jaligida mavjud shart-sharoitlarni e'tiborga olib, amalga oshirilayotgan islohotlar quyidagi tamoyillarga asoslanadi.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida.

- qishloq xo'jaligi islohotlarini davlatning aniq maqsadga yo'naltirilgan agrar siyosati bilan bog'lab amalga oshirish;

jamoa xo'jaliklarini saqlab qolish, ularni bozor munosabatlariga moslab rivojlantirish va har xil shakldagi xo'jalik shakllarini e'tiborga olgan holda ularni qayta qurish;

- qishloq xo'jaligi ma'muriy boshqaruv metodlaridan voz kechib, iqtisodiy boshqaruv metodlarga o'tish;

- fermer va dehqon xo'jaliklarini keng rivojlantirib, qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilarida yerga, mulkka, mehnat natijalariga egalik hissini shakllantirish.

Bu tamoyillarga asoslangan holda respublika qishloq xo'jaligida islohotlarning huquqiy bazasini barpo etish, qishloq xo'jalik korxonalar va tashkilotlarini davlat tasarrufidan chiqarish, xususiyashtirish, fermer va dehqon xo'jaliklarini tashkil qilish va rivojlantirish, agrobzor iqtisodiyoti infratuzilmasini barpo etish qishloq xo'jaligida soliq va narx-navo siyosatini takomillashtirish, boshqaruv tizimini o'zgartirish, moddiy texnika ta'minotini yaxshilash va boshqa tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni tahlil qilish, ularning natijalarini sinchiklab o'rganish qishloq xo'jaligi islohotlarini yanada chuqurlashtirish zamon talabi ekanligini tasdiqladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 24 martdagi "Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning muhim yo'nalishlari to'g'risida"gi Farmonida fermerlarni rivojlantirish ustuvor yo'nalishi sifatida belgilandi. Kelajakda qishloq xo'jaligida fermerlik faoliyati xo'jalik yuritishning asosiy shakli bo'lib qoladi. Qishloqda mulkdorlar sinfining shakllanishida fermer xo'jaliklari muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda islohotlarni amalga oshirish yillari davomida paydo bo'lgan va yig'ilib qolgan ko'plab muammolar Prezident farmonlari asosida hal qilinmoqda. Bu fermerlik va dehqon xo'jaliklari rivojiga ustuvorlik berilishi avvalambor, qishloq xo'jalik o'simliklarini joylashtirishda taqsimlash ishlarini

amalga oshirish, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni, unga darashli mulkni va moddiy resurslarni o'z ichiga olgan mehnat natijalarini tasarruf qilishdir. Bundan buyon ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirish qishloq xo'jalik erlaridan unumli foydalanishda ijara shaklini kengaytirish.

Fermer xo'jaliklarda ishlab chiqarish samaradorligi shirkatlarga nisbatan ancha yuqori ekanligini isbotladi. Ularda mineral o'g'itlar, yonilg'i tejamkorlik bilan ishlatilmoqda, moddiy resurslar gektariga o'rtacha 2 marta kam sarflangan.

Prezidentimiz o'z ma'ruzasida "Fermer degani - bu avvalo universal qobiliyatta ega bo'lgan inson. Halqimiz iborasi bilan aytganda bugun fermerga qirq hunar ham oz" deb ta'kidladilar.

Haqiqatdan ham bir vaqtning o'zida ham dehqon, ham agronom, ham chorvador, ham mexanizator, ham hisobchi, ham iqtisodchi bo'lish fermerda katta bilim va ma'suliyat talab qiladi. Bugungi fermer ana shu talablarga mos bo'lmog'i lozim.

Hukumatimiz tomonidan fermer va dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish uchun kerakli huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy asoslar yaratib berilganligi ularning sonini keskin o'sishiga va ishlab chiqariladigan mahsulotlari hajmini oshirishiga olib kelmoqda. Qishloq xo'jaligida islohotlar tobora chuqurlashib, bozor iqtisodi sharoitida faoliyat ko'rsatishi turli mulk shakllaridagi korxonalar o'rtasida raqobat muhitini keltirib chiqaradi.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida islohotlar o'zbek modeli asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. U MDH yoki boshqa rivojlanayotgan mamlakatlardagi jarayonlardan farq qiladi dehqon fermerlarga tom ma'nodagi erkinlikni berish, ularning faoliyatida bozor islohotlariga xos sog'lom raqobatni tdakllantirish, mulkka egalik hissini mustahkamlash, qishloqdagi tovar ishlab chiqaruvchilarni xo'jalik yuritishning zamonaviy uslublariga o'rgatishdan iborat.

Ma'lumki, Prezidentimiz tashabbusi va rahbarligida agrar tarmoqda yangi boshqarish tizimi yaratildi. Bir qator sohalar bo'yicha hissadorlik uyushmalari, birlashmalari tashkil etildi va ular mustaqil faoliyat ko'rsata boshladi. Ushbu

xo'jalik sub'ektlari faoliyatini takomillashtirishga erishishning eng maqbul yo'li iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida erkinlashtirish "jarayonini amalga oshirish hisoblanadi. Uning asosiy jihatlari quyidagilarni o'zida mujassamlashtiradi.

- baholarni erkinlashtirish;


- korxonalariga xo'jalik faoliyatini mustaqil amalga oshirishga imkoniyat yaratish;

- xususiy tarmoq rivojlanishidagi to'siqlarni bartaraf etish;

- moliyaviy operatsiyalarni erkinlashtirish;

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jalik korxonalari - bu, murakkab iqtisodiy dinamik tizim bo'lib, u tashkiliy va nisbatan mustaqil faoliyat yurituvchi umumishlab chiqarish bo'g'ini hisoblanadi. Unda umumxalq, jamoaga oid va shaxsiy manfaatlarga xo'jalik hisobi asosida erishiladi.

Fermer xo'jaliklari mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bo'lib, ular barcha iqtisodiy va xo'jalik ishlarini mustaqil ravishda o'zi hal qiladi va amalga oshiradi, ya'ni ishlab chiqarish jarayoni texnologiyasi va uni tashkil qilish, ishlab chiqarish tizimini tanlash, tayyor mahsulotni sotish, foydani ishlatish, moliyaviy operatsiyalarni yuritishdan iborat murakkab jarayonni amalga oshiradi. Ushbu jarayonda fermer xo'jaligining boshqarish samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar mavjud. Bunda xo'jaliklarning samarali boshqaruv tizimiga ta'sir etuvchi tashqi omillarga tashkiliy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, xalqaro munosabatlar, texnik-texnologik va shartnomaviy munosabatlar hamda bozor mexanizmlarini kiritishimiz mumkin. Bundan tashqari xo'jalik faoliyatiga ta'sir etuvchi ichki omillar ham mavjud bo'lib, bularga moliyaviy resurslar, xo'jalikning ichki boshqaruv tizimi, xo'jalik rahbarining bilimi va malaka darajasi, xodimlarning ishga bo'lgan munosabati hamda xo'jalikda tavakkalchilikni boshqarish mexanizmini tashkil etilishi kiradi (3-rasm).




3-rasm. Fermer xo'jaliklarini samarali boshqarishga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar⁷

Olamda barcha jarayonlar tizim sifatida mavjud va rivoj topadi. Ular son jihatdan ko'p va turfa xil bo'lib, uchta - biologik, tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga bo'linadi. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimda fermer xo'jaligining tutgan o'рни

⁷O.A.Saydaxmedov Agrar sohani boshqarishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish: i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – T., 2012.

alohida e'tiborga loyiqdir. Fermer xo'jaligi ishlab chiqarish tizimining moddiy asosini ijaradagi yer va xususiy mulkchilikdagi boshqa ishlab chiqarish vositalari tashkil etadi. Bu tizimning yana bir o'ziga xos xususiyati – tadbirkorlik faoliyatining erkinligi va mustaqil faoliyat yuritishidir.

Fermer xo'jaligining ichki tizimi texnik, texnologik va ishlab chiqarishni, mehnatni tashkil etish, iqtisodiy tizimlardan tashkil topgan bo'ladi. Barcha tizim unsurlari o'zaro bir-biriga bog'liqdir. Ularning birgalikdagi harakati xo'jalikning yagona tizim tarzida mavjudligini ko'rsatadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir korxonaga, tashkilot ochiq tizim ko'rinishida faoliyat ko'rsatadi. Xususan, fermer xo'jaligi ham bundan mustasno emas. Sababi fermer xo'jaligining istiqbolini va rivoj topishini kooperatsiyaga asoslangan uyushma (birlashma), agrofimlar va turli xizmatlar ko'rsatuvchi bozor infratuzilmalarisiz tasavvur etish qiyin. Ularni fermer xo'jaligi faoliyatiga ta'sir etuvchi tashqi tizim deb qarash mumkin (4-rasm).



4 -rasm. Fermer xo'jaligi ishlab chiqarish faoliyatini boshqarishning ichki va tashqi tizimlari⁸

Ammo fermer xo'jaliklari faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa tizimlar ham mavjud. Xususan, soliq, ekologik, demografik va boshqalar. Ushbu tizimlarni inkor etmagan holda muallif tadqiqot jarayonida asosan kooperatsiya va xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmalari faoliyatini o'rganishni maqsad qilib qo'ygan.

Mamlakatimizda fermer xo'jaliklari faoliyatini tartibga solish va boshqarishning huquqiy-me'yoriy asoslari bosqichma-bosqich yaratilib, joriy

⁸ Tashmatov R.X. Fermer xo'jaliklari kooperatsiyasi va bozor infratuzilmalari rivojlanishini boshqarish.: I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. - T.: 2010. – B. 12

etilmoqda. Xususan, fermer xo'jaliklarining iqtisodiy va moliyaviy mustaqilligini ta'minlash, ijaraga berilgan erdan samarali foydalanish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonini moliyalashning ishonchli tizimini shakllantirish, fermerlar uchun kadrlarni tayyorlash tizimini barpo etish hamda qishloq xo'jaligi korxonalari (shirkat xo'jaliklari) negizida fermer xo'jaliklarini tashkil etish va ularni boshqarishni takomillashtirish, bozor infratuzilmalarini barpo etish asosida ular o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish, fermer xo'jaliklari faoliyatini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, mahsulot turlarini ko'paytirish va sifatini oshirish kabi chora-tadbirlar ishlab chiqib amaliyotga joriy etib borilmoqda.

1.3. Fermer xo'jaliklarini boshqarishdagi o'zgarishlar va uni amalga oshirish davrlari

Mamlakatimizda fermer xo'jaliklari faoliyatini tartibga solish va boshqarishning huquqiy-me'yoriy asoslari bosqichma-bosqich yaratilib, joriy etilmoqda. Xususan, fermer xo'jaliklarining iqtisodiy va moliyaviy mustaqilligini ta'minlash, ijaraga berilgan erdan samarali foydalanish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonini moliyalashning ishonchli tizimini shakllantirish, fermerlar uchun kadrlarni tayyorlash tizimini barpo etish hamda qishloq xo'jaligi korxonalari (shirkat xo'jaliklari) negizida fermer xo'jaliklarini tashkil etish va ularni boshqarishni takomillashtirish, bozor infratuzilmalarini barpo etish asosida ular o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish, fermer xo'jaliklari faoliyatini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, mahsulot turlarini ko'paytirish va sifatini oshirish kabi chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

Ma'lumki, fermer xo'jaliklari faoliyatiga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlarda fermerlarga ixtiyorlik asosida mahsulot etishtirish, uni qayta ishlash va sotish, moddiy-texnika ta'minoti va boshqa xil xizmat ko'rsatish bo'yicha uyushmalar hamda birlashmalarga a'zo bo'lish huquqi berilgan. Lekin amaldagi qonunchilikda ayrim tartiblar va talablar to'liq yoritilmagan.

Bu borada Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga bag'ishlangan asarida⁹ “qonunchilik va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish va mustahkamlash, ... tegishli qonun hujjatlariga, Er kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish”ga e'tibor qaratish printsiplial ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tganlar. Shuni inobatga olib, muallif fermer xo'jaliklarini tashkil etish va rivojlantirishning huquqiy asosini tashkil etuvchi qonunlarga qo'shimchalar kiritish lozim, deb hisoblaydi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi “Kooperatsiya to'g'risida”gi qonuniga: “Koope-ratsiyani tashkil etish” bobi va uning tarkibiga fermer xo'jaliklari kooperatsiyasini tashkil etish tartiblari, uni uyushma (birlashma) yoki agrofirma shaklida davlat ro'yxatidan o'tkazish, qishloq xo'jaligida fermer xo'jaliklarining kooperatsiya tamoyillariga asoslangan uyushma (birlashma)larini tashkil etish moddalarini; “Uyushma (birlashma)ning ustavi” bobi va uning tarkibiga uyushmaga birlashgan tuzilma ustavi talablari va unga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish moddalarini, shuningdek alohida uyushmaning mulki, faoliyatining asoslari, uni qayta tashkil etish va tugatish haqidagi boblar hamda a'zolarning huquqlari, davlat va kooperatsiya ishtirokchilari munosabatlari, uyushma boshqaruv organlari to'g'risida moddalar kiritishni taklif etadi.

O'zbekiston Respublikasi “Fermer xo'jaligi to'g'risida”gi qonuniga esa fermer xo'jaliklari kooperatsiyasi va uning tuzilmalarini tashkil etish tartibi, ularning vazifalari, maqsadi, huquqlari, majburiyatlari, a'zolarning huquqlari hamda shu kabi boshqa qo'shimchalar kiritishni tavsiya etadi.

Mustaqillik yillarida fermer xo'jaliklarining tashkil topishi va rivojlanishi 4 bosqichga bo'lib o'rganilgan: birinchi bosqich - 1993-1997 yy.; ikkinchi bosqich - 1998-2002 yy.; uchinchi bosqich - 2003-2007 yy.; to'rtinchi bosqich – 2008 y.dan keyingi yillar. Ushbu bosqichlarda erishilgan asosiy iqtisodiy natijalar -jadvalda keltirilgan.

⁹ I.A. Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. – b. 21

O'zbekistonda fermer xo'jaliklarining rivojlanish bosqichlari¹⁰

Ko'rsatkichlar	Bosqichlar			
	I	II	III	IV
Fermer xo'jaliklari soni, ming birlik	21,4	72,4	217,1	105,0
Biriktirilgan er maydoni, ming ga	413,3	1591,7	5787,8	5860,1
Ishchilar soni, ming kishi	134,4	461,9	1621,4	1710,2
Bitta fermer xo'jaligiga to'g'ri keladigan o'rtacha er maydoni, ga	19,3	22,0	26,7	56
Bitta fermer xo'jaligida o'rtacha ishchilar soni, kishi	6,3	6,4	7,5	7,8

Izoh: dastlabki uchta bosqich ko'rsatkichlari uning yakuni bo'yicha, to'rtinchi bosqich esa 1.01.2009 yil holati bo'yicha berilgan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, dastlabki uch bosqichda fermer xo'jaliklari soni keskin o'sib borgan. Bu ularga biriktirilgan yer maydoni ko'payishi hisobiga erishilgan, ya'ni o'sish ekstensiv yo'l bilan amalga oshirilgan. Keyingi to'rtinchi bosqichda esa fermer xo'jaliklarining soni 2007 yilga nisbatan deyarli 2,1 martaga kamaygan. Bu fermer xo'jaliklari er maydonlarining optimallashtirish jarayoni natijasida ro'y bergan, ya'ni yiriklashuv orqali sifat bosqichiga qadam qo'yilgan.

Tahlillar shundan dalolat beradiki, faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklari o'tgan yillar mobaynida ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy yutuqlarga erishdi. "2008 yilda fermer xo'jaliklarining paxta etishtirishdagi ulushi 99,1 foizni, g'alla tayyorlashda esa 79,2 foizni tashkil qildi¹¹". Shuningdek, 2008 yilda faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklari tomonidan respublikamizdagi 16,2 foiz kartoshka, 32,9 foiz sabzavot, va 47,1 foiz poliz mahsulotlari etishtirilgan. Ta'kidlash joizki, 2003 yilda fermer xo'jaliklari tomonidan 37,8

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

¹¹ I.A. Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. – 22 b.

foiz paxta, 35,7 foiz g'alla, 3,8 foiz kartoshka, 10,6 foiz sabzavot va 30,3 foiz poliz mahsulotlari ishlab chiqarilgan edi¹².

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi xulosani qilishimiz mumkin: birinchidan, fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish salohiyati oshishi qishloq aholisini ish bilan ta'minlash va ularning daromadlari ko'payishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda; ikkinchidan, mulkdan samarali foydalanish va oqilona xo'jalik yuritish tajribasi oshib bormoqda, ekinlar hosildorligi o'sib, yalpi mahsulot ishlab chiqarish va daromadi ko'paymoqda; uchinchidan, qishloq xo'jaligida fermer xo'jaliklarining mavqei o'sib, tobora mustahkamlanib bormoqda. Bular qishloqda xususiy mulkdorlar qatlamini shakllanishini faollashtirmoqda.

Shu bilan bir qatorda, fermer xo'jaliklarining istiqbolda rivojlanishi ko'p jihatdan ularni qo'llab-quvvatlovchi, ishlab chiqarilgan mahsulotni qayta ishlash, saqlash va sotishga ko'maklashuvchi kooperatsiya tamoyillariga asoslangan tuzilmalarni, jumladan uyushma (birlashma)lar yoki agrofirkmalarni tashkil etishga bog'liqdir.

¹² O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

2 BOB. “QILICHBEK QAHRAMON” FERMER XO’JALIGINING IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINING TAHLILI

2.1. “Qilichbek Qahramon” fermer xo’jaligi boshqaruv faoliyati tahlili

Bugungi kunda mamlakatimizda fermerlik harakatini yanada rivojlantirish uchun zarur shart sharoitlar yaratilmoqda. Fermer xo’jaliklarining qonunchilik hamda huquqiy me’yoriy asoslari ancha mustahkamlandi va takomillashib bormoqda. Fermer xo’jaliklari iqtisodiyotni boshqarishning moddiy manfaatdorlikka, mulkdorlik, egalik hissiga asoslangan va iqtisodiy qonunlar talabi asosida boshqarishdagi o’ziga xos tizimni ifoda etmoqda.

Shuni alohida qayd etish kerakki, boshqaruvchilar xizmati va samarasi ayrim xodimlarning faoliyati ularning bajargan ish natijalari bo’yicha baholashning iloji yo’q. Ularning faoliyati natijalari boshqaruv obektiga tasir qilish yo’li bilan amalga oshiriladi, ishlar natijalarida ko’rinadi. Shuning uchun boshqaruv faoliyatini rolini baholashda xo’jalik faoliyatining oxirgi natkjalari, nisbatan tasir ko’rsatishiga qarab aniqlash maqsadga muvofiq.

Biz “Qilichbek Qahramon” fermer xo’jaligining 2009-2010-2011 yillardagi iqtisodiy ko’rsatkichlarini o’rganib chiqdik. “Qilichbek Qahramon” fermer xo’jaligini rivojlantirishda menejmentning roli xo’jalik faoliyatining natijasi bilan aniqlandi.

“Qilichbek Qahramon” fermer xo’jaligi faoliyatini o’rganishda birinchi navbatda xo’jalikning tabiiy iqlimi va iqtisodiy ko’rsatkichlarini o’rganib chiqildi.

“Qilichbek Qahramon” fermer xo’jaligi 2002 yilda tashkil topgan. Xo’jalik asosan dehqonchilik mahsulotlari yetishtirishga, ya’ni g’allachilikka ixtisoslashgan. Xo’jalikning geografik joylashishi va iqlim sharoiti asosan g’allachilik uchun qulay hisoblanadi. Xo’jalik yer maydoni asosan yalmi yerlardan iborat.

“Qilichbek Qahramon” fermer xo’jaligi dastlab tashkil etilganida unga birlashtirilgan er maydoni 60 gektarni tashkil etgan bo’lsa, xo’jalikning samarali faoliyati natijasida ushbu er maydoni avvaliga 80 gektarga va keyinchalik 120 gektarga hamda bugungi kunga kelib esa 180 gektar er maydoni mavjud. Bu albatta “Qilichbek Qahramon” fermer xo’jaligida ishni to’g’ri tashkil qilish va davlat buyurtmalarini o’z vaqtida sifatli bajarish natijasida deyish mumkin.

2-jadval

“Qilichbek Qahramon” fermer xo’jaligining iqtisodiy ko’rsatkichlari¹³

	Ko’rsatkichlar	Yillar			2012 yilda 2010 yilga nisbatan o’zgarish	
		2010y.	2011 y.	2012 y.	Farqi (-,+)	Nisbat (%)
1	Jami yer maydoni, (ga)	80,0	120,0	180,0		225
	Shundan sug’oriladigan, (ga)	60,0	90,0	140,0	+2	233,3
2	Xo’jalikda faoliyat yurituvchi aholi, nafar	18,0	22,0	30,0	+12	166,6
3	Asosiy vositalar qiymati, ming so’m	45421,0	47711,0	86620	+41199	190,0
4	Mahsulot hosirdorligi ts/ga					
	Bug’doy	21	19	22	-	-

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki 2010 yilga nisbatan “Qilichbek Qahramon” fermer xo’jaligining iqtisodiy ko’rsatkichlari bir muncha o’sgan. Ya’ni 2010 yil jami er maydoni 80 gektardan 2012 yilga kelib 180 gektarga xo’jalikda faoliyat yurituvchi aholi 30 nafarga oshgan.

Xo’jalikning asosiy vositalari "1 dona «Altay» traktori

1 dona «DT-28» traktori

1 dona «MTZ-80» traktori

1 dona "Yenisey" kombayni

1 dona "Tiko" avtomobili

¹³ “Qilichbek Qahramon” fermer xo’jaligining yillik hisobotidan.

Fermer xo'jaligi menejmenti unga kelib tushadigan daromadga tasir etuvchi qarorlar bilan bog'liq. O'zida keng manoni mujassamlashtirgan ushbu tushuncha asosan, boshqa maqsadlarga qaraganda foyda olishni korxonaning eng asosiy maqsadlaridan biri ekanligini bildiradi. Bundan tashqari bu tushuncha maxsus qarorlarni va qaror qabul qilishni boshqaruvning bir qismi ekanligini anglatadi. Fermer xujaligini boshqaruvchilar maqsadga erishishi yulidagi faoliyatida, quyidagi omillarga asoslangan doira ichida harakat qilishiga majburdirlar. Yer, ishchi kuchi va kapital resurslarning cheklanganligi;

-bozor talabi;

-ob-xavo, yerdan unumli foydalanish va yerga ishlov berish ko'nikmalari;

-xukumat tomonidan chiqarilgan xuquqiy va siyosiy cheklovlar;

Bu xo'jalikdagi boshqaruvga tasir qiluvchi omillar asosli ekanligini aniqlandi, mamuriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyot bilan bozor yoki aralash iqtisodiyot sharoitida qaror qabul qilish uchun mavjud muhit bir-biridan sezilarli farq qiladi.

Quyidagi jadvalda ikki iqtisodiy tizim qiyoslangan, yani markazdan boshqaruv bilan tadqiqot o'tkazilgan xo'jalikning boshqaruv tizimini qiyoslandi. Jadvalda ko'rinib turganidek mamuriy buyruqbozlik sharoitida fermer davlat tasarrufida bo'ladi, bozor iqtisodiyoti sharoitida fermer erkin faoliyat yuritadi.

Xo'jalik tizimning eng asosiylarini faoliyat asosi tarzida qabul qilgan. Masalan, fermer xo'jaligi boshlig'i barcha qarorlarni mustaqil qabul qilgan va yerga egalik qilish huquqi bir qancha imkoniyatlar tug'ilishiga olib kelgan. Shuningdek xo'jalikning moliyaviy ahvoli o'rganildi.

Sarmoyalarni tahlil qilishda tez-tez muqobil xarajatlarni ko'rib chiqish zaruriyati tug'ilgan. Sarmoya masalasini muhokama qila turib fermer ikki yo'ldan birini tanlashi kerak; fermer kredit oladi yoki o'zining kapitalidan sarmoya qiladi. Kreditni qoplashga ketadigan harajatlarni hisoblash oson yani, bank foyda foizini bilishi kifoya. Ko'pchilik yo'l qo'yilgan xato agar fermer bankdan olgan kreditini emas, balki o'zining mablag'idan foydalangan, olingan foyda sarmoyani baholashda ko'rib chiqilmagan. Boshqa resurslardan

foydalanilgan holda fermer o'z kapitalini muqobil ravishda boshqa faoliyatda qo'llashi mumkin. Menejer sug'orish tarmoqlariga sarmoya qo'yishi mumkin, u holda boshqa sarmoya imyoniyatlari yo'qqa chiqadi. Mana shu holatda yo'qqa chiqqan imkoniyatlar kapitalning muqobil xarajatlariga misol bo'la oladi, yabni menejer etishtirish maqsadida malum bir turdagi resursni tanlaydi va shu resursni boshqa bir mahsulot etishtirishga sarflaganda olish mumkin bo'lgan foydani yo'qotadi. Odatda bir resursdan foydalanib turli mahsulot ishlab chiqarish mumkin, lekin muqobil harajatlar ichidan eng katta foyda keltiradigan mahsulotni tanlay olgan menejer oqil menejer hisoblanadi.

Kamyob resursni bir turdagi faoliyatda sarflash natijasida, shu resurslarni foydasi kattaroq boshqa turdagi faoliyatda sarflanganligi natijasida yo'qotilgan foydaga muqobil harajatlar deyiladi.

3-jadval

“Qilichbek Qahramon” fermer xo'jaligining mehnat haqidan tashqari harajatning nisbatan o'zgarishi¹⁴

№	Ko'rsatkichlar	2010y	2011 y	2012 y.	2012 yilda 2010 yilga nisbatan o'zgarishi	
					Farqi (-,+)	Nisbat(%)
1	Mahsulot sotishdan tushgan tushum (ming so'm)	0,57	0,56	0,24	-0,33	42,1
2	Paxta ts/ming so'm	214,4	297,7	234,3	+19,9	109,2
3	Don ts/ming so'm	107,2	159,5	117,1	+9,9	109,2
4	Sholi ts/ming so'm	128,6	190	140,6	+12	109,3

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki “Qilichbek Qahramon” fermer xo'jaligining paxta, don, sholi kabi mahsulot sotishdan tushgan tushum yildan-yilga o'sish ko'rsatkichlarini 2010 yilga nisbatan 2012 yildagi o'zgarish farqi keltirilgan (3-jadval).

Fermer xo'jaligida foydaga tasir etuvchi omillar ijobiy yoki salbiy natijalar beradi, xo'jalikda yo'qotilgan foyda mavjud, yani xo'jalikda faqat umumiy

¹⁴ “Qilichbek Qahramon” fermer xo'jaligining yillik hisobotidan.

mahsulot yetishtirishga sarflangan harajat hisobga olingan, lekin har bir ish bo'yicha sarflangan harajat hisob kitobi yuritilmagan.

Umumiy mehnat haqidan tashqari harajatlarning mahsulot turlariga nisbatining o'zgarishini o'rganib chiqdik. Ishchi kuchiga bo'lgan talab texnika imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilanadi. Texnika yordamida amalga oshiriladigan hosilni yig'ish bilan bog'liq ishlarni ishchi kuchi bilan bog'lab yozish mumkin. Lekin texnikaga nisbatan ishchi kuchiga bo'lgan talab katta ahamiyat kasb etmaydi yig'im-terim davrida vaqtinchalik ishchi kuchi, ishchi kuchini rejalashtirishni ancha yengillashtiradi. Har bir ekin etishtirishda ishchi kuchiga bo'lgan talab me'yoriy ko'rsatkichlardan olinadi va olingan ko'rsatkichlar xo'jalikdagi bir doimiy traktor haydovchisi ish soat imkoniyatlari bilan solishtirilgan. Umumiy zarur ishchi kuchiga doimiy ishchi kuchi miqdori etishmasa oradagi uzilish vaqtinchalik ishchi kuchi yoki 0,5 ish kuniga yoldanuvchi ishchi kuchi hisobidan to'ldirilgan.

4-jadval

Xodimlarning soni va istemolga yo'naltirilgan mehnat haqi fondi¹⁵

Ko'rsatkichlar	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2012 y da 2010 yilga nisbatan o'zgarishi	
				Farqi (-,+)	Nisbat (%)
Fermer xo'jaligida ishlovchilar hammasi, nafar.	18	19	19		105
-Shundan qishloq xo'jaligida band bo'lganlar ishlovchilar nafar. Fermer xo'jaligi boshlig'i va xizmatchi, nafar	15 1 2	16 1 2	16 1 2	+1 +1	106
Fermer xo'jaligida ishlovchilarning mehnat haqisi, ming so'm.	1234,5	2120,3	3180,5	+1946	100
Shundan: Qishloq xo'jaligida band bo'lgan ishlovchilarning mehnat haqi xarajati ming.so'm	846,0	1548,8	2100,5	+12545	257
Xo'jalik boshligining mehnat haqisi, ming so'm	168,5	211,5	480 600	+311,5	248
Xizmatchilarning mehnat haqi harajati.ming so'm	220	360		+380	284
					272

¹⁵ "Qilichbek Qahramon" fermer xo'jaligining yillik hisobotidan.

Ushbu jadvalda biz fermer xo'jaligida ishlovchi barcha xodimlar shuningdek qishloq xo'jaligida band ishlovchilar va boshliq, hisobchi, mashina haydovchisiga sarflangan mehnat haqi xarajatlarini taxlil qilib o'rgandik, yani xo'jalikda 2010 yilga nisbatan 2012 yildagi o'zgarishlarni aniqladik. Ushbu jadvaldan xulosa chiqarish mumkinki fermer xo'jaligi azolariga 2012 yilda bazis yilga nisbatan 157 foizga mehnat haqi ortiqcha to'langan. Shuningdek xo'jalik boshlig'ining mehnat haqisi 2010 yilga nisbatan hisobot yilida 184 foizga oshgan, qishloq xo'jaligida band ishlovchilarga ham yildan yilga mablag' ko'p sarflangan. Xulosa qiladigan bo'lsak moddiy rag'batlantirish orqali xo'jalikda ishlovchilarning mehnatga layoqatliligi oshib borgan mehnatni tashkil etishda xo'jalik boshlig'ining roli ushbu natijalarda ko'rinadi. Masalan xo'jalikda 15 ta ishlovchi bo'lib uning ichida 4 nafari mexanizator bo'lib 1 nafar avtomobil haydovchisi, 1 ta boshqaruvchi, 1 ta hisobchi ushbu ishlovchilarning barchasi doimiy ishlovchi bo'lib hisoblanadi. Shuningdek rivojlantirish jarayonida ishchi kuchi xarajatlari hisobga olingan.

1. Kelgusi yildagi ishchi kuchi xarajatlari o'tgan yil xo'jalik ishchi kuchi xarajatlari ko'rsatkichlariga asoslangan.

2. Imkoniyat bo'lganda ishchi kuchi xarajatlarini tajriba natijalaridan foydalanib aniqlangan, masalan ishchi kuchiga xarajat ko'p sarflanish natijasida shu yilda samaradorlik berganligi hisobga olingan.

3. Rejalash jarayonida, ishchi kuchi xarajatlarini aniqlashda meyoriy ko'nikish sistemasi qo'llanilgan. Quyidagi jadvalda standart kun-kishi hisobiga xo'jalik boshlig'i rejasi berilgan.

Xo'jalikda mehnat unimining o'sishi ko'p jihatdan ish vaqtidan qay darajada foydalanish darajasi bilan bog'liq bo'lgan. Fermer xo'jaligida ish vaqtidan foydalanishning quyidagi jihatlarini farqlash mumkin:

- ishchilar ish vaqtidan foydalanish darajasini o'rganish;
- uskunalar ish vaqtidan foydalanish darajasini o'rganish.

- ishchilar ish vaqtidan foydalanishning umumlashgan ko'rsatkichi-jami ishchilar tomonidan yil davomida ishlagan kishi soatlari hisoblanadi. Tahlil chog'i, xo'jalikda ish vaqtidan foydalanishning 1 darajada yo'lga qo'yilganligi, uning o'zgarishiga tasir etuvchi alohida omillarning tasir darajasiga tarif berildi.

Fermer xo'jaligining pul mablag'larini harakatini o'rganib chiqish davomida sof kirim va chiqimga ahamiyat berildi. Bir necha yil bo'yicha pul oqimini tahlil etish - ishlab chiqarishni kengaytirish uchun mablag'larni jalb etish va xo'jalikni moliyaviy ahvolini yaxshilash imkonini beradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishga bo'lgan intilishda menejer to'qnash keladigan muhim muammo bu xo'jalikda mavjud bo'lgan muhitning jo'shqin va doimiy o'zgarib turishidir. Bu asosan quyidagi bozorga bog'liq omillar sababli ro'y bergan;

1. Narxlarning o'zgarishi. Mahsulotning kirim va chiqim narxlari doimiy o'zgarib turadi. Narxlarning o'zgarishi korxonada tomonidan ryosurslarni qisqa muddatda qayta baholash natijalariga mos kelmasligi. O'z navbatida mahsulotlar narxining o'zgarishi korxonada umumiy foydalilik ko'rsatkichiga tasir ko'rsatadi. Masalan, tadqiqot o'tqazishda fermer xo'jaligiga kelib tushgan pul mablag'i va to'langan pul mablag'i o'rtasidagi farq ham o'rganildi. Masalan, 2010 yili xo'jalikka 758 ming so'm pul mablag'i xaridorlardan kelib tushgan, 2012 yili 28718 ming so'm pul mablag'i xaridorlardan kelib tushgan, shuningdek mol yetkazib beruvchilarga to'langan pul mablag'i va boshqa to'lovlar 20817 ming so'mni tashkil etadi. Orada 7901 ming so'mlik tafovut bor.

Resurslar xarid qilish imkoniyatining o'zgarishi. Xarid qilish mumkin bo'lgan resurs miqdorining o'zgarishi, o'z navbatida korxonada holatiga tasir etadi yani, taminot muammolari o'g'it yoki yem-xashak sarfini cheklab qo'yishi mumkin. Resurslar xarid qilish imkoniyatining o'zgarishini hisobga olib, fermer

xo'jaligi boshlig'i qisqa vaqt ichida o'zi qarorlarini qayta ko'rib chiqishga majbur bo'ladi va aksincha resurslar taklifi o'sishi mumkin.

Texnik aloqalarning o'zgarishi. Texnologik jarayonning takomillashishi natijasida harajatlari va yalpi daromadning o'zgarishi ora'idagi aloqaga yani, misol uchun. Shu kunda ekilayotgan bug'doy kabi hosildorlikka ega bo'lgan lekin kasalga chidamli, begona o'tlarga qarshi kamroq kimyoviy moddalar talab qiladigan va kam harajatli bug'doyning yangi navini xarid qilish imkoni tug'iladi. Xo'jalik boshlig'i doim yangi texnologiya berishi mumkin.

2.2. "Qilichbek Qahramon" fermer xo'jaligi rivojlanishinig joriy holatini tahlili

Fermer xo'jaligi boshlig'i o'z ishlab chiqarish faoliyatni yo'lga qo'yar ekan avvalo daromad va harajatlarni to'g'ri hamda maqsadli boshqarishga ahamiyat beradi. Bunda tahlil ham o'z tasiriga ega. Negaki, korxonada faoliyatini chuqur o'rganmasdan, tahlil etmasdan turib, uning ijobiy natijaviyligini belgilab bo'lmaydi. Tadqiqot o'tkazish jarayonida tahlil qilishda bir qancha vazifalar qo'yildi: Ular quyidagilardan iborat:

- foyda va zararni shakllanishi va tarkibi, tuzilishi bo'yicha o'zgarishlarni baholash;
- yalpi foyda va uni o'zgarishini omilli o'rganish;
- davr harajatlari va ularning o'zgarishlarini baholash;
- asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan olingan natija va uning o'zgarishini tahlil qilish;
- umumxo'jalik faoliyatidan olingan natijani hisoblash;
- soliq to'lovigacha bo'lgan natijani aniqlash;
- sof foyda va uning o'zgarishini omilli o'rganish;
- foydani o'stirish yuzasidan ichki imkoniyatlar va ularni yo'lga qo'yish;
- chora-tadbirlarini belgilash va h.k.

Tadqiqot jarayonida mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan olingan natija rejaga va o'tgan yillarga nisbatan qiyosiy o'rganildi. Asosiy etibor ularning

o'zgarish sabablariga qaratildi. Mahsulot otishdan olingan foyda va uning o'zgarishiga tasir etuvchi omillarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

mahsulot bahosini o'zgarishi;

mahsulotlar fizik hajmining o'zgarishi;

mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxining o'zgarishi;

mahsulotlar assortimenti va strukturasi o'zgarishi va boshqa omillar.

Tahlil etishda har bir omilning yakuniy ifodaga tasir darajasi hisob kitob qilindi va fermer xo'jaligida foydani o'stirishning ichki imkoniyatlari belgilandi. (5-jadval)

5-jadval

“Qilichbek Qahramon” fermer xo'jaligining moliyaviy ko'rsatkichlarining o'zgarishi (ming so'm)¹⁶

Ko'rsatkichlar	Yillar			2012 yilda 2010 yilga nisbatan	
	2010	2011	2012	(+)(-)	%
Mahsulot sotishdan tushgan tushum	11211	15822	22369	+11158	119,0
Mahsulot tannarxi	6432	8933	7030,9	+598,9	109,3
Daromad	4779	6889	15338,1	+10559,1	320,0
Ma'muriy xarajat	160	180	240	+80	150,0
Foyda solig'i	212,1	330,2	574,1	+362	270,0
Ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajat	8038,6	11563,5	11025,5	+2986,9	137,1
Hisobot davridagi sof foyda	3172,4	4258,5	116343,5	+8171,1	357,5

“Qilichbek Qahramon” fermer xo'jaligining moliyaviy natijalaridan ma'lumotlar to'planib o'rganishda asosiy e'tibor fermer xo'jaligining mahsulot sotishdan tushgan sof tushum va sof foydaning o'zgarishini aniqlashga qaratildi. Moliyaviy natijalar uch yillik ko'rsatkichlarni tahlil qilish orqali aniqlandi.

Fermer xo'jaligining moliyaviy natijalarini o'rganib chiqish davomida xo'jalikning 2010 yilgi ko'rsatkichlariga nisbatan 2012 yildagi o'zgarishlari tahlil qilindi. Masalan, mahsulot sotishdan tushum 2012yilda 99% ga ko'paygan, shunga yarasha mahsulot tannarxi 9,3 foizga oshib borgan.

¹⁶ “Qilichbek Qahramon” fermer xo'jaligining yillik hisobotidan.

Shuningdek xo'jalikning boshqaruv ishlariga sarflangan xarajatlari hisoblab chiqildi. 2010 yil mamuriy xarajat 160 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa 2012 yilga kelib 50% ga ortiqcha harajat qilingan, xo'jalik rahbarining izohlashicha bahoning o'zgarishi tasir ko'rsatgan. Sotilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish uchud sarflangan xarajatlar ham yildan yilga oshib borgan, Masalan, 2010 yilga nisbatan 2012 yilda 37,1 foizga ortiqcha xarajat sarflangan, xisobot davridagi sof foyda 2010 yilga nisbatan 2012 yilda 257,5 foizga ortgan.

Shuningdek tadqiqot o'tkazish jarayonida sof foyda va uning o'zgarishiga tasir etuvchi omillar tahlil qilindi. Ushbu ko'rsatkichni o'rganish va tahlil etish asosida xo'jalikning joriy davrdagi natijaviyligiga baho berildi. Shuningdek ular foydani o'stirish yoki zararni minimallashtirish bo'yicha mavjud ichki imkoniyatlarning borligiga, istiqbol rejalarini belgilashga, xo'jalikning moliyaviy ahvolini yaxshilash yuzasidan boshqaruvning muhim strategik qarorlarini qabul qilishda katta etibor berishlari kerak.

Bozor iqtisodiga o'tish qishloq xo'jalik mutaxassisi fazifasini muhim o'zgartiradi. Bir tomondan uning ishi xo'jalik xodimlarini qoniqtirish, boshqa tomonlama foyda keltiradigan tijorat ishi. Uning ishlariga asoslanib ishlab chiqish, mahsulotni yaxshilash bu sifatli mahsulot olish oliy eksplotatsiya xossalari va tavsifga ularni arzon narxda sotish.

Fermer xo'jaligida boshqaruv faoliyatiga sarflangan harajatlarning xo'jalikning iqtisodiy ko'rsatkichlariga nisbati quyidagi jadvalda yoritildi (6-jadval).

“Qilichbek Qahramon” fermer xo'jaligida boshqaruvga sarflangan harakatlar (mehnat haqidani tashqari) natijasida olingan tushum va foyda summasini aniqlash natijasida mamuriy xarajatning sarflanishi sof foyda va tushumga tasirini aniqlash maqsad qilib olindi. Masalan, har ming so'mlik mahsulot sotishdan tushgan tushumga 2010 yili 0,014 ming so'mdan mamuriy

xarajat to'g'ri keldi, yani 14 so'mga to'g'ri keladi. 2012 yili bu ko'rsatkich 71 % ni tashkil qiladi.

6-jadval.

“Qilichbek Qahramon” fermer xo'jaligining boshqaruv xarajatlarini o'zgarishi¹⁷

Ko'rsatkichlar	Yillar	Pul ko'rsatkichlar	O'zgarish oldingi yilga nisbatan	
			(+,-)	%
Mamuriy xarajat, nisbatan ming so'm	2010	160	+10	106
	2011	180	+20	112
	2012	240	+60	150
Mahsulot tan narxiga tsisbatani, ming so'm	2010	0,02	+0,01	200
	2011	0,02	—	100
	2012	0,03	+0,01	150
Mahsulot sotishdan tushgan tushumga nisbati, ming sum	2010	0,014	+0,001	107
	2011	0,011	-0,003	78,5
	2012	0,010	-0,001	90
Sof foydaga nisbati, ming so'm	2010	0,050	+0,003	109
	2011	0,042	-0,008	89
	2012	0,021	-0,021	50
Ishlovchilarga nisbati, ming so'm/nafar	2010	8,88	+0,88	111
	2011	9,47	+0,59	106
	2012	12,6	+3,13	133
Ishchilarning mehnat haqqi xarajatiga nisbati.	2010	0,12	+0,02	120
	2011	0,08	-0,04	66
	2012	0,07	-0,01	87

Shuningdek sof foydaning har ming so'mining tashkil bo'lishiga 2010 yili 50 so'mdan to'g'ri kelsa 2011 yili 42 so'mdan 2012 yili 21 so'mdan to'g'ri kelgan yatsi 50 % ga tushgan. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak fermer xo'jaligida olingan foydaga nisbatan sarflangan mamuriy xarajat tildan-yilga kamayib borgan. Biz bu jarayon bo'yicha og'zaki suhbat o'tkazganimizda fermer iqtisodni nazarda tutganligini isbotlab berdik.

Shuningdek, xo'jalik moliyaviy faoliyatidan olingan natijalarni boshqaruv ishlariga sarflangan harajatlarga nisbatini tashkil qilish orqali mamuriy harajetni har bir so'miga to'g'ri keladigan tushum, mehnat haqi

¹⁷ “Qilichbek Qahramon” fermer xo'jaligining yillik hisobotidan.

daromad, foyda va boshqaruvning samaradorlik koeffitsenti aniqlandi. (7-jadval).

7-jadval

“Qilichbek Qahramon” fermer xo’jaligining boshqaruvning samaradorlik koeffitsenti¹⁸

Ko’rsatkichlar	Yillar			2012 yilda 2010 yilga nisbatan	
	2010	2011	2012	Farqi (+) (-)	%
Mehnat haqining mamuriy xarajatga nisbati, ming so’m	7,71	11,7	13,2	5,49	171
Daromadning xarajatga nisbati, ming so’m	29,8	38,2	63,9	34,1	214
Boshqaruvning samaradorlik koeffitsenti	70	87,9	93,2	23,2	X

Ushbu jadvalda ko’rinib turganidek fermer xo’jaligining boshqaruv samaradorligini belgilovchi birdan-bir ko’rsatkich va natija bu mahsulot sotishdan tushgan tushum va mamuriy xarajat bo’lib hisoblanadi. Shuningdek mamuriy xarajatning har bir so’mi hisobidan olingan daromad va mavmuriy xarajatning har bir so’miga to’g’ri keladigan mehnat xarajati aniqlandi, masalan 2010 yilga nisbatan hisobot yilida mehnat haqining mamuriy xarajatga nisbati 71% ga oshdi, shuningdek, daromadning 2012 yilda mamuriy harajatga nisbati 63,9 ming so’mni tashkil qilsa bazis yilga solishtirganda nisbatan 114 %ga oshgan.

Boshqaruvning samaradorlik koeffitsentini aniqlaganimizda 2010 yilda boshqa koeffitsent birligini tashkil qilgan bo’lsa, 2011 yili 87,9 koeffitsentni tashkil qilgan, yildan-yilga oshib borish tsatijasida 2012 yili 93,2 koeffitsentni tashkil qiladi yani bazis yilga solishtirganda hisobot yilida 23,2 koeffitsent birligiga teng yani 33 %ga oshgan. Bu demak, fermer xo’jaligini rivojlantirishda boshqaruvning smaradorlik koeffitsenti yildan-yilga oshib borgan. Xulosa qilib aytish mumkinki xo’jalikni rivojlantirishda fermer xo’jaligini boshqaruv faoliyati har tomonlama samarali natija bergan.

¹⁸ “Qilichbek Qahramon” fermer xo’jaligining yillik hisobotidan.

2.3. “Qilichbek Qahramon” fermer xo’jaligining iqtisodiy ko’rsatkichlari tahlili

Fermer xo’jaliklari mamlakat miqyosida son va sifat jihatdan o’sib borishi bilan bir qatorda ularni yanada rivojlantirishga o’z imkoniyatlarini to’liq amalga oshirishga to’sqinlik qilayotgan bir qancha muammolar yuzaga kelmoqda. Jumladan;

- fermer xo’jaliklarni rivojlantirish shu jumladan mulkchilik munosabatlarini takomillashtirish bo’yicha qabul qilingan qonunlar va me’yoriy xujjatlar amalda yetarli darajada tadbiq qilinmay kelmoqda. Natijada qishloq xo’jaligining mulkka egalik masalalari o’z echimini to’liq topmasdan, dehqonlarga haqiqiy mulkdorlik hissi va mulkdorlar sinfi juda sekinlik bilan shakllanayapti:

- fermer xo’jaliklarga xizmat qilayotgan tarmoqlar va tashkilotlar jumladan, topshirilgan mahsulot uchun haq to’lovchilar bilan tuzilgan shartnomalar (hisob-kitob masalalari) bozor talablari asosida to’liq amalga oshirilayotir.

- fermer xo’jaliklariga konsalting xizmat ko’rsatuvchi tashkilotlar juda sekinlik bilan joylarda tashkil etilmoqda.

- joylarda tashkil etilgan kichik banklar faoliyati juda sust, ular fermer xo’jaliklari talablarini qondira olmayapdilar.

- ko’pchilik hollarda fermer xo’jaliklariga xizmat ko’rsatuvchi tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomalar juda sayoz tuzilgan.

Fermerlarda huquqiy va iqtisodiy bilim yetishmayapti. Qishloq xo’jalik kimyo tashkilotlari shartnoma shartlarini qo’pol ravishda buzmoqdalar yani ko’rsatilgan miqdorda mineral o’g’itlarni yetkazib berayapdilar.

- yoqilgi moylash materiallariga fondlar bo’yicha tashkilotlarning saqlanib turganligi fermerlarni yerga ishlov berishdagi agrotexnik talablarni to’liq bajarishda hamda yerga takroriy ekinlarni ekishda muammolar tug’dirmoqda.

Yuqorida ko’rsatib o’tilgan muammolar tadqiqot o’tkazilgan xo’jalikda ham mavjud. Masalan, xo’jalik paxta sotish bo’yicha tumandan paxta zavod bilan shartnoma tuzgan va fermer xo’jaligi mahsulotni vaqtida yetkazib bergan lekin

har yili fermer xo'jaligining sotilgan mahsulotlarining puli paxta zavod tomonidan vaqtida to'liq to'lanmagan. Yani, muddati o'tgan qarzlarga penya qo'shib berilmagan, shartnomada bu ko'rsatilgan ushbu jarayon bo'yicha fermer xo'jaligi iqtisodiy tomondan zarar ko'rmoqda buning sababi fermer iqtisodiy bilimga ega emasligi. Shartnoma shartlarining bajarilishi majburan ekanligini tasdiqlangan shartnoma ko'rsatib turibdi. Ushbu shartnoma bo'yicha paxta zavod fermer xo'jaligi majburiyatlarini talab qilib paxtani vaqtida qabul qilib olishga erishgan.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, "Qilichbek Qahramon" fermer xo'jaligida har yili debitorlik qarzdor bo'lgan, yani 2010 yili oxiriga paxta zavodiga topshirilgan paxtaga to'lanadigan pulning 1008 ming so'mi vaqtida fermer xo'jaligi hisob raqamiga tushirilmagan.

Shuningdek, 2012 yilda paxta zavod 3700 so'm qarzdor bo'lib ushbu qarzni 2012 yili 31 dekabrgacha to'lamagan. Shu sababli daromadga qo'shib hisoblanmagan. Lekin hisobga kiritilishi lozim edi. Bu summa paxta zavod tomonidan to'lanishi majburan yani fermer xo'jaligining daromadi bo'lib hisoblanadi. Sof foydaga to'lanmagan qarzning tasirini debitor qarzning sof foydaga nisbati bilan aniqladik.

8-jadval

“Qilichbek Qahramon” fermer xo'jaligining debitorlik qarzlarning sof foydaga tasiri¹⁹

Ko'rsatkichlar	Yillar			2012 yilda 2010 yilga
	2010	2011	2012	Farqi (+) (-)
1. Debitor qarzlari jami ming so'm	1008	9952	3700	+2692
Shundan Paxta zavod	580	5500	3700	3120
Boshqa xaridorlar	428	4452	-	-
2. Debitor qarzlarning sof foydaga tasiri jami, foiz(%)	31,7	31,3	32,6	+0,9
Shundan paxta zavod	18,2	129,2	32,6	+14,4
Boshqa xaridorlar :	13,4	104,5	-	+0,17

¹⁹ “Qilichbek Qahramon” fermer xo'jaligining yillik hisobotidan.

2010 yili jami debitor qarzi 31,7 foizdan sof foydaga to'g'ri kelsa 2012 yili 32,6 foizdan to'g'ri kelgan. Demak yildan yilga debitor qarzi oshgan faqat 2011 yilning o'zini olib qararak 9952 ming so'mlik debitor qarzi bo'lgan ushbu qarzar undirilib olinganda foyda summasi bir muncha oshgan bo'ladi. Shuningdek debitor qarzni daromadga qo'shib hisoblaganda fermer xo'jaligining sof foydasi ortiqcha hisoblanadi.

Jadvalda ko'rsatilganidek xo'jalikning debitor qarzarlarini hisoblash natijasida mahsulot sotishdan tushgan tushum va sof foydaning o'zgarishi tahlil qilinganda debitor qarzi hisoblanganida 2010 yili 12219 ming so'mlik tushum va 2012 yili bu ko'rsatkich 113,3 %ga oshirilish lozim edi. Shuningdek, foyda 2012 yilda bazis yilga nisbatan 259,8% ga oshirilish lozim edi. Debitor qarzi hisoblangandagi sof foydaning debitor qarzi hisoblanmagandagi sof foydaga nisbatan o'zgarishini tahlil qilib o'rganishda quyidagilarni aniqlashga erishdik. Masalan, 2010 yilda 1008,0 ming so'mga kamaygan yani 31,0 %ga, 2012 yilda 3700,0 ming so'mga kamaygan yani 32,0 %ga, 2010 yilga nisbatan 2012 yilda 100,7 %ga o'zgarsa farqi 2692,0 ming so'mni yani 1,0 %ni tashkil etadi.

3 BOB. IQTISODIYOTNI DIVERSIFIKATSIYALASH SHAROITIDA FERME XO'JALIKLARI FAOLIYATINI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

3.1. Fermer xo'jaliklarini boshqarishning xorijiy mamlakatlar tajribasi

Xorijiy mamlakatlar agrar sektori rivojlanishida fermerlar kooperativlari, fermerlar ittifoqlari, oilaviy fermerlar o'z tarkibida omborxonalar, asbob-uskunalar, kompyuter texnologiyalari mavjud bo'lgan assotsiatsiyalar katta rol o'ynamoqda.

Fermerlar ittifoqi va assotsiatsiyalar milliy, mahalliy darajada bir-biri bilan mustahkam aloqada faoliyat yuritadi hamda fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatadi. Birinchidan, qishloq xo'jaligini rivojlantirishning umumiy siyosiy yo'nalishlari bo'yicha (mahalliy, hukumat va parlament tomonidan ilgari surilayotgan) maslahatlar berish, ikkinchidan esa, texnik va texnologik muammolar yechimi ta'minlanishiga yordam beradi. Fermerlar birlashmasi ichida turli darajada maslahat markazlari tuziladi. Milliy qishloq xo'jaligi maslahat (konsalting) markazi, joylardagi markazlarni axborot ma'lumotlari, shuningdek, ishlab chiqarishdagi ilg'or tajribalar bo'yicha ma'lumotlar bilan ta'minlab turadi. Bunday maslahat markazlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:


- qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilarga ishlab chiqarish uslublarini takomillashtirishda yordam ko'rsatish;
- chorva mollari naslini yaxshilash;
- fermerlarga qishloq xo'jaligi ekinlari zararkunandalari va kasalliklariga qarshi kurashish tadbirlarida yordam ko'rsatish;
- fermerlar uchun o'quv kurslari tashkil qilish;
- fermerlarni ilmiy yangilik ma'lumotlari bilan ta'minlab turish;
- moliya va soliq tizimi uchun kerakli ma'lumotlar tayyorlashni tashkil qilish.

Fermer xo'jaligini boshqarish xorij tajribasiga ko'ra quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi. Masalan: Angliyada fermer xo'jaligi quyidagicha boshqariladi:

- ishlab chiqarish jarayonini boshqarish;
- biznesni boshqarish;
- moliyani boshqarish;
- marketingni boshqarish;
- xodimlarni boshqarish;

Fermer xo'jaligini boshqarish asosini maqsadga erishish uchun ishlab chiqarishni yo'naltirish tushunchasi tashkil etadi.

Shuningdek iqtisodiy tamoyillardan bir nechtasini quyida ko'rsatib o'tamiz.



5-rasm. Fermer xo'jaliklarini boshqarishdagi iqtisodiy tamoyillar bosqichlari

Ma'lumki, dehqonchilikda yuqori daromad olish yer maydonining kattaligiga emas, balki undan unumli foydalanishga bog'liq. Buning uchun dehqondan boy tajriba va mehnat talab qilinadi. Ayni masalada yapol fermerlarining ish uslubini misol qilsa bo'ladi. Yaponiyada fermerga o'rtacha

1.84 gektar er to'g'ri keladi. Ular erdan yuqori hosil olish bilan birga mahsulotning ekologik toza bo'lishiga ham katta e'tibor beradilar. Mineral o'g'itlardan kam foydalanishadi, gerbitsid va funktsiyalarni esa umuman ishlatishmaydi. Asosan organik o'g'itlar mol va parrandalar go'ngi qo'llashadi. Turli chiqindilar va daraxt barglari qayta ishlanib, fermerlarga, o'g'it sifatida foydalanishga beriladi.

Yaponiyadagi mavjud erning 13 foizi qishloq xo'jaligiga ajratilgan bo'lib fermerlar yetishtirilgan mahsulot aholining 40 foizigagina yetadi. Shuni aytish kerakki, yapon fermerlari mahsulotni asosan issiqxonada yetishtiradilar. Bu ularga sabzavot, poliz va mevali daraxtlarga sun'iy ta'sir ko'rsatib, ularning pishishini tezlatish yoki kechiktirish imkonini beradi. Natijada, mahsulot narx ko'tarilgan paytda bozor yuzini ko'radi. Masalan, mango mevalari tabiiy holda aprel - iyul oylarida pishadi. Bu vaqtda bozor turli mevalarga to'kin va narx past bo'ladi. Agar mangoning pishishini noyabr oyiga qadar kechiktirilsa, unga talab kuchayadi va qimmat narxda sotiladi. Buning uchun ular issiqxona ustiga qo'shimcha to'rsetka tortadilar.

Gulchi fermerlar ham narxlar ko'tarilishini mo'ljallab, mahsulot yetishtiradilar.

Ular mevali daraxtlarni payvandlash yo'li bilan o'z sharoitlariga mos, chidamli va serhosil navlarni yaratganlar. U erda nafaqat tsitrusli daraxtlar, balki, sabzavot va poliz ekinlari ham payvandlanadi.

Ochiq maydondagi erlar 50 sm chuqurlikda haydalib, so'ng tekislanib ekiladi.

Yaponiyada har bir fermerda yer pasporti bo'lib unda ekin maydoni, erning oziq moddalar bilan ta'minlanganlik darajasi ko'rsatiladi.

Yapon fermerlarining ishbilarmonligi izlanuvchanligi, ma'suliyatni to'liq anglay bilishlari yuqori moddiy manfaatdorlikni ta'minlaydi. Yaponiya fermer xo'jaliklarini boshqarish bo'yicha yapon tajribalarini O'zbekiston respublikasida fermer xo'jaliklarini rivojlanishi jarayonida qo'llash mumkinligi ko'rsatib ishlab chiqarishga jalb qilish zarur.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda fermer xo'jaliklari kooperatsiyalarini tashkil etish tajribalari o'rganildi. Tahlillar ko'rsatadiki, ko'plab xorijiy mamlakatlarda fermer xo'jaliklari milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, uni rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Masalan, Germaniyada 4,2 mingdan ortiq mustaqil tovar ishlab chiqaruvchi, qayta ishlovchi va xizmat ko'rsatuvchi huquqiy maqomga ega kooperativlar Fridrix Vilgelm Rayffayzen tamoyili asosida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Rayffayzen tamoyili – o'zaro yordam, qo'llab-quvvatlash, o'z-o'zini boshqarish, natija uchun jamoa mas'uliyati, raqobat qobiliyatini saqlab qolish kabilarni o'z ichiga oladi. Mamlakatdagi deyarli barcha fermerlar ushbu tamoyilni tan olgan holda bir yoki bir necha kooperativlarning a'zolari hisoblanadi. Hozirgi paytda Rayffayzen kooperativlari homiylik qilish, mahsulot turlarini ko'paytirish, fermer xo'jaliklariga xizmat qilishni yanada yaxshilash, iste'molchilarni xaridorgir sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash yo'nalishida faoliyat ko'rsatmoqda.

Kanada davlatining agrar siyosati ham tovar ishlab chiqaruvchilarning qayta ishlash, ulgurji, ba'zida chakana savdo sohasida birlashishlariga qaratilgan²⁰. Hozirgi paytda ushbu kooperatsiyalar huquqiy asosga ega bo'lib, tovar ishlab chiqaruvchilar faoliyatining umumiy tan olingan hayotiy me'yorlariga aylangan.

Xorijiy mamlakatlarda fermer xo'jaliklarini moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlashga ixtisoslashgan kooperativlar ham rivoj topgan. Evropa Ittifoqi mamlakatlarida qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlashning 50 %, Skandinaviya davlatlari (Shvetsiya, Norvegiya, Finlyandiya)da - 60 %, AQShda - 26 % kooperativlar ulushiga to'g'ri keladi. Umuman olganda chet mamlakatlarda fermer xo'jaliklarining

²⁰ Tashmatov R.X. Fermer xo'jaliklari kooperatsiyasi va bozor infratuzilmalari rivojlanishini boshqarish: i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 2010. – B. 12

kooperatsiyalarga birlashishi an'anaga aylangan va bu o'z samarasini bermoqda (9-jadval).

9-jadval


Xorijiy mamlakatlar qishloq xo'jaligida kooperatsiyaning o'rni²¹

Ko'rsatkichlar	G'arbiy Evropa	AQSh	Kanada	Avstraliya	Skandinaviya davlatlari	Yaponiya	Xitoy
Kooperatsiya asosida birlashgan fermerlarning salmog'i, %	60-80	60-80	60-80	60-80	deyarli hamma	deyarli hamma	80
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda kooperatsiyaning salmog'i, %	60	86	85	60	85	90	65

Bu esa kooperatsiyaning naqadar zarurligini va uning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati beqiyos ekanligini ko'rsatib turibdi. Shu bilan birga, ta'kidlash o'rinliki, hech bir fermer mahsulot etishtirish, uni sotish va saqlash muammolarini mustaqil hal etishga qodir emas. Fermer xo'jaliklari mahsulotlarini sotishni tashkil etish tahlillari shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda savdo va vositachilik xizmati yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, fermer xo'jaliklarining barqaror sotish kanallariga ega emasligi, ortiqcha vaqt va mablag' sarflash kabi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ana shulardan kelib chiqqan holda, xorijiy tajribalarni hisobga olib, muallif kooperatsiyaga asoslangan ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari uyushmalarining hududiy boshqaruv tuzilmalarini tashkil etishni tavsiya etadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, fermer xo'jaliklarida tez buzuluvchi, maxsus transportda tashish imkoniyati cheklangan mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmi ko'paymoqda. Shuni hisobga olib, ilmiy ishda tez buzuluvchi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqish, qayta ishlash va sotishga ixtisoslashgan kooperatsiyaga asoslangan fermer xo'jaliklari uyushmasi boshqaruvining tashkiliy tuzilmasi taklif etilgan (6-rasm).

²¹ Tashmatov R.X. Fermer xo'jaliklari kooperatsiyasi va bozor infratuzilmalari rivojlanishini boshqarish: i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 2010. – B. 13



6–rasm. Hududda dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqish, qayta ishlash va sotishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari kooperatsiyasiga asoslangan uyushma boshqaruvining tashkiliy tuzilmasi²²


Ushbu tashkiliy tuzilma uning tarkibiga kirgan barcha boshqaruv bo'g'inlarining tashkiliy-iqtisodiy va texnologik jihatdan o'zaro aloqadorligini ta'minlaydi, bo'linmalar vazifalari soni va chegarasini aniqlaydi, chiziqli va funktsional boshqaruv o'rtasidagi mutanosiblikni saqlaydi, alohida olingan bo'linmalar huquqi, majburiyati, vazifalarini aniq belgilaydi va uyushma faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda yagona maqsadga yo'naltiradi. Qishloq aholisini ish bilan bandligini, iste'mol bozorini xilma-xil chorvachilik mahsulotlari bilan ta'minlash maqsadida qayta ishlovchi korxonalarini tashkil etishni ja-dallashtirish dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Prezidentimiz I.Karimov o'zining ja-hon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga bag'ishlangan asarida²³ go'sht va sutni qayta ish-lashga ixtisoslashgan mikrofirma va kichik korxonalarini qo'llab-quvvatlashga katta e'ti-bor berishni alohida ta'kidlab o'tganlar. Shuni hisobga olib, dissertatsiyada sut mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha fermer xo'jaliklari uyushmasining hududiy tashkiliy tuzilmasi ishlab

²² Tashmatov R.X. Fermer xo'jaliklari kooperatsiyasi va bozor infratuzilmalari rivojlanishini boshqarish: i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 2010. – B. 13

²³ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. – 35 b.

chiqilgan. Ushbu ilmiy ishlanma mamlakatimiz mintaqalarida hududiy uyushmalarni tashkil etishda amaliy-uslubiy qo'llanma vazifasini bajarishi mumkin.

Shuningdek qishloq xo'jaligi texnikasini oldi-sotdisi, qayta tiklash va sotishdan keyin undan foydalanishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari uyushmasi boshqaruvining tashkiliy tuzilmasi ishlab chiqilgan (7-rasm). Ushbu tashkiliy tuzilma fermer xo'jaliklarini (ayniqsa past rentabelli va o'z faoliyatini endi boshlayot-gan) texnik ta'minotini oshirishning muhim omili va zarur sharti hisoblanadi. Bunday tuzilmaning hududlarda tashkil etilishi fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining texnikani sotib olish uchun qilinadigan xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishga imkon beradi.



7–rasm. Qishloq xo'jaligi texnikasini sotib olish va sotish, qayta tiklash va sotishdan keyin ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha fermer xo'jaliklari uyushmasi boshqaruvining tashkiliy tuzilmasi²⁴

Qishloq joylarida yuqorida tavsiya etilgan kooperatsiya tamoyillariga asoslangan fermer xo'jaliklari hududiy uyushmalarini tashkil etish va uni rivojlantirish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda yangi imkoniyatlarni ochib beradi va uning iqtisodiy o'sishini ta'minlashga zamin yaratadi.

²⁴Tashmatov R.X. Fermer xo'jaliklari kooperatsiyasi va bozor infratuzilmalari rivojlanishini boshqarish: i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 2010. – B. 14

3.2. Fermer xo'jaliklari faoliyatida innovatsion jarayonni boshqarish mexanizmini rivojlantirish

Hozirgi vaqtda jamiyat va davlatning intellektual, ilmiy-ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan rivojlanish asosini ilm-fanning uyg'un holda muntazam taraqqiy ettirib borilishi tashkil qilmoqda. Ishlab chiqarish sohasiga zamonaviy texnologiyalar tatbiq etilishi ham, mazkur jarayonning uzviylik kasb etishi bo'yicha qilinayotgan qat'iy sa'y-harakatlar davomidir. Albatta, ushbu holat ayniqsa, xorijiy davlatlar tajribasida eng murakkab masalalarni echishda ko'proq tatbiq etilmoqda. Aksariyat mamlakatlar ushbu jihat hisobidan iqtisodiyotdagi pasayish holatini to'xtatib qolish bilan bir qatorda, ichki va tashqi bozorni raqobatbardosh mahsulotlar bilan to'ldirishga erishmoqdalar. Jumladan, qishloq xo'jaligida ekstensiv imkoniyatlardan foydalanish, ma'lum darajada innovatsion muhitning shakllanishi agrar sohaning ham texnologik darajasi rivojlanishiga olib kelmoqda.

Bugungi kunda respublikamiz fermer xo'jaliklarini innovatsion rivojlanishidagi ba'zi o'zgarishlar etarli darajada emas. Buning asosiy sabablaridan birini malakali kadrlar etishmasligi bilan izohlash mumkin. Faol innovatsion faoliyat bilan shug'ullanayotgan qishloq xo'jaligi korxonalari ulushi ularning umumiy soniga nisbatan 0,5-0,6 foizdan oshmayapti. Bunga, sohada innovatsion loyihalarning etishmasligi, ba'zi holatlarda umuman yo'qligi, aksariyat xo'jaliklarda yuqori malakali kadrlar hamda moliyaviy resurslarning etishmasligi ham asosiy sabab bo'lmoqda. Ma'lumki, dunyoning aksariyat mamlakatlarida mahsulot ishlab chiqarish hajmining ko'payishi asosan, ilmiy va innovatsiya yangiliklaridan samarali foydalanish hisobiga amalga oshirilmoqda. Jumladan, Germaniyada yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sishi 100 foiz innovatsiya hisobiga to'g'ri kelmoqda. Tayvanda esa, korxonalarning innovatsion tadbirkorligi hisobiga 78 foiz bandlik va YaIMning 45 foizi ta'minlanishiga erishilmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda rivojlanishning innovatsion yo'liga muqobil teng keladigani yo'q.

Yangi turdagi mahsulotlarni yaratish, joriy qilish, shuningdek, texnologik jarayonlarni yangilab borish, aholi bandligini ta'minlash, mahsulot eksport hajmini ko'paytirish, sifatini yaxshilash kabi jihatlar bugungi kunda mahsulot etishtirish hajmini ko'paytirishning asosiy omiliga aylanib bormoqda. Bularning barchasi qishloq xo'jaligi korxonalari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni ichki va xalqaro bozordagi raqobatbardoshligi hamda ijtimoiy-iqtisodiy holatning me'yoriy darajada bo'lishini belgilab beradi. Shuning uchun ham, mamlakatning bundan buyon ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy sharti samarali innovatsion siyosatga bog'liq bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda innovatsion jarayonning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu, uning ko'p tarmoqliligi bo'lib, innovatsiyani moliyalashtirishning asosiy manbalari – respublika byudjeti va mahalliy byudjet hisoblanadi. Shunga e'tibor berish kerakki, bu borada so'nggi yillarda byudjet mablag'larining ulushi kamayib bormoqda, xo'jalik sub'ektlari mablag'laridan moliyalashtirish esa aksincha, ko'payib bormoqda.

Qishloq xo'jaligida faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklarida zamonaviy texnika-texnologiyalarni joriy qilish ishtiyoqi bor, ammo, bunga o'z mablag'larini ishlatish, banklar kreditlaridan foydalanish bo'yicha bilimlari va tajribalari etishmayotganligini qayd etishgan.

Qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish omillari oxir-oqibatda investitsiya va innovatsion jarayonlarga borib taqaladi. Bunday holatdan chiqishning asosiy yo'li - zamonaviy ilm-fan va texnika taraqqiyoti imkoniyatlaridan to'laroq foydalanishdan iborat. Bu yalpi ichki mahsulot o'sishini ta'minlaydi, jumladan, yetakchi mamlakatlarda fan va texnikaning rivojlanish imkoniyatlarini ishga solish hisobiga YaIM o'sishi 50 foizdan 95 foiz oralig'ida tebranmoqda.

Respublika agrar ishlab chiqarish sohasida faol innovatsion faoliyat bilan shug'ullanayotgan korxonalarining ulushi ularning umumiy soniga nisbatan 0,5-0,6 foizni tashkil qilmoqda. Buning asosiy sabablari – innovatsion loyihalarning yetishmasligi, ba'zi holatlarda umuman yo'qligi, aksariyat xo'jaliklarda

malakali kadrlar va moliyaviy resurslar etishmasligi bo'lmoqda. Mamlakat agrar sektor strategiyasi innovatsiyaga asoslansagina sohaning barqaror rivojlanishi ta'minlanishi mumkin. Bu yo'nalish milliy iqtisodiyotning ustuvor omili sifatida davlat dasturlarida o'z ifodasini topishi lozim.

Endilikda, davlatlarning boy yoki kambag'al, industriallashtirilgan yoki agrar mamlakatlar deb baho berilishi urfdan qolib, uning o'rniga xom ashyo yetishtiruvchi yoki tovar mahsulotlari etishtiruvchi, texnologiyalar ishlab chiqaruvchi, bilimlar yaratuvchi (shu jumladan, yuqori texnologiyalar), deb baho berishga o'tib borilmoqda. Oxirgi guruhga kiruvchilar esa, dunyoda yetakchi davlatlar hisoblanadi.

Texnologiyalar joriy qilish muntazam takomillashtirilib borilmoqda va bu jihat turli mamlakatlarda turlicha amalga oshirilmoqda. Jumladan, AQShda federal davlat miqyosida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari natijalari nodavlat korxonalarini orqali amalga oshiriladi. Ular ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari tizimida asosiy bo'g'in hisoblanadi. Federal hukumat shular orqali eng yaxshi ilmiy tadqiqot tashkilotlari, iste'dodli olimlarni ish bilan ta'minlaydi va ularning oldiga ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari bo'yicha vazifalar qo'yadi. Germaniyada avval AQSh tajribasidan foydalanilgan, keyinchalik esa, Angliya, Frantsiya, Yaponiyada qo'llanilayotgan ilmiy tadqiqot tajribalari qabul qilingan. Ammo, 1980 yildan esa, hududiy investitsion fondlar tashkil qilish va ish hajmlari ko'proq kichik va o'rta korxonalariga o'tkazilishiga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Bunday innovatsion markazlar ijro va qonunchilik tashkilotlari, unga aloqador bo'lgan xususiy tizimlar bilan tashkil qilina boshladi.

Yaponiya va janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari innovatsion faoliyat resurslarini, istiqbolli yuqori texnologiyaga asoslangan yangiliklarni oxirgi bozorga chiqarish oldidan sotib olishga qaratdilar. Bu esa, ularga yangiliklarning oxirgi bosqich ishlarini yakunlab, joriy qilish imkoniyatini yaratib berdi. Yaponiya yiliga 1500 ta litsenziya sotib olish hisobiga ushbu yangiliklarni

yaratish uchun ilmiy tadqiqot ishlariga AQShga nisbatan 100 marotaba kam sarf-xarajat qilgan va import qilinayotgan mahsulotlarni shu litsenziyalar orqali ishlab chiqarishga tatbiq etish hisobiga kamaytirgan. Shu hisobidan Yaponiya AQShdan 30 yillik orqada qolishini tenglashtirib olgan, bir qator mahsulot turlari bo'yicha esa, ilgari ham ketishga erishgan. Hozirda Yaponiya tajribasidan ko'p mamlakatlar samarali foydalanmoqda, bizda ham ushbu tajribalarni o'rgangan holda, joriy qilish yaxshi natija berishi mumkin. Bu holatda sotib olish uchun o'zidagi ilmiy ishlanmalar natijalaridan olinayotgan mablag'lar bo'lishi talab etiladi. Shuning bilan bir qatorda, litsenziyalar sotib olishning ham, bir qator muammolari va qiyinchiliklari mavjud. Bularning asosiylari moliyalashtirish va korxonalarining ilg'or texnologik uskunalarni joriy qilishga texnik jihatdan tayyor emasligi, kadrlar malakasi etishmasligi hamda innovatsion jarayonni boshqarish darajasi pastligi hisoblanadi.

Agrosanoat majmuida innovatsion boshqarish samaradorligini oshirishda, shu jumladan, qishloq xo'jaligida ASMning texnik va texnologik jihatdan modernizatsiyasiga qaratilgan davlatning maqsadli dasturlari va agrar sektor istiqboliga qaratilgan fundamental va ommaviy tadqiqotlarga asoslangan innovatsion dasturlar roli oshib boradi. Bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri – yakunlangan ilmiy tadqiqot natijalarini joriy qilish mexanizmini mutlaqo qaytadan ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

3.3. Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida fermer xo'jaliklarini boshqarish mexanizmini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari

Respublikamizda islohotlar doirasida ko'zda tutilgan davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish davlat boshqaruv darajalari o'rtasidagi vakolatlarni aniq chegaralash va bir qator davlat boshqaruv funktsiyalarini bosqichma-bosqich mahalliy boshqaruv va o'zini-o'zi boshqaruv organlariga berish orqali amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, olib borilgan tadqiqot natijalariga qaraganda, qishloq xo'jaligini boshqarish tizimi bozor munosabatlari sharoitiga to'la moslasha olmayapti va uni takomillashtirish zaruriyati tug'ilmoqda.

Ma'lumki bugungi kunda iqtisodiyotimizning turli tarmoqlarini diversifikatsiyalash borasida qator chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan bo'lib, albatta bu tadbirlar qishloq xo'jaligida ham olib borilishi, o'z navbatida fermer xo'jaliklari faoliyatini yanada rivjollantirishga zamin yaratadi.

Fermer xo'jaliklarini boshqarishda bozor munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor berish lozim. Jumladan, asosiy e'tibor mahsulot ishlab chiqarishga emas, balki iste'mol bozorining talabi (mahsulot marketingi)ga qaratilishi va ishlab chiqarishni shu asosda tashkil qilish lozim.

Qishloq xo'jaligida olib borilayotgan islohotlar va uni chuqurlashtirishning bugungi kundagi vazifasi dehqonning yerga, yaratilgan mahsulotga haqiqiy egalik hissini mustahkamlash, yer-suv munosabatlarini takomillashtirib borib, erdan, suvdan va boshqa resurslardan samarali foydalanishni tashkil etish bo'lib qoladi. Shu boisdan dehqon xo'jaliklariga yer maydonlari muddatsiz va merosga qoldirish huquqi bilan, fermer xo'jaliklariga uzoq muddatga ijaraga berish qonun bilan belgilab qo'yilishi bunda mustahkam huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 5 yanvardagi 8-sonli "Qishloq xo'jaligi korxonalarini fermer xo'jaliklariga aylantirish to'g'risida"gi qaroriga asosan shirkat xo'jaliklarini to'liq tugatib, ular negizida fermer xo'jaliklariga aylantirish bilan bog'liq bo'lgan me'yoriy xujjatlar tasdiqlandi.

2004 yil 26 avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi qonunining yangi taxriri, tanlov o'tkazish bo'yicha Nizomlarning 2005 yilda qabul qilinishi fermer xo'jaliklarini tashkil etishda zarur huquqiy asoslarni yaratdi.

Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning ushbu bosqichida amalga oshirilgan ishlar, to'plangan tajribalarga asoslanib, islohotlarni yanada chuqurlashtirishga to'sqinlik qilgan sabablarni bartaraf etish maqsadida 2003 yilning 24 martidagi PF-3226 sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida", 2003 yil 23 oktyabrdagi PF-3342 sonli

“2004-2006 yillarda fermer xo’jaliklarini rivojlantirish kontsepsiyasi to’g’risida” farmonlari qabul qilingan.

Fermer xo’jaliklari bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo’jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari orasida eng takomillashgan shakli sifatida ularni rivojlanishiga ustuvor yo’nalish berildi hamda 2009 yil 25 dekabrda qabul qilingan “Fermer xo’jaligi to’g’risida”gi qonunining 3-moddasiga kiritilgan o’zgartirish bilan “Fermer xo’jaligi O’zbekiston Respublikasida qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishning asosiy sub’ekti” deb e’tirof etildi.

Hozirgi vaqtda boshqarish bo’yicha to’rtta muhim yondashish ma’lum, bularning har biri boshqarish nazariyasi va amaliyotida faol qo’llanilmoqda. Bular to’rt yo’nalishdagi boshqarish maktabi bo’lib, har biri o’ziga xos uslubiyati bilan ajralib turadi. Bu boshqarishga ilmiy yondashish maktabi, ma’muriy boshqarish, insonlar orasidagi munosabatlar va inson ahloqi haqidagi fan, boshqarish fani yoki raqamlar uslubiyatidir.

Jarayon bo’yicha yondashish boshqaruvi bir-biri bilan beto’xtov aloqadagi vazifalar sifatida talqin qilinadi.

Tizimli yondashishga o’zgarib borayotgan sharoitda oldinga qo’yilgan turli vazifalarni bajarishga qaratilgan rahbarlar tashkilotchiligining bir-biriga bog’liq unsurlar yig’indisi, jumladan, shaxslar, tizim, vazifa va texnologiya sifatida qaraladi.

Sharoitdan kelib chiqqan holatda yondashishda boshqarishning turlicha uslublari sharoitga qarab belgilanadi. Omillar turlari ham, tashkil etishning ham, atrof-muhitdagi turli holatlarda shart-sharoitlar ko’p bo’lganligi sababli, korxonani boshqarishning yagona va eng yaxshi uslubiyati yo’q. Boshqarishning eng samarali uslubi bu, aniq sharoitga mos keladigan uslub hisoblanadi.

Boshqarish bo’yicha ushbu nazariy asoslarga tayangan holda oldingi paragraflarda qishloq xo’jaligini boshqarishning respublika, hududlar va fermer xo’jaliklari darajasidagi tahlillarga asoslanib, sohani boshqarishni takomillashtirish bo’yicha takliflar ishlab chiqilib, ularni asoslashga harakat qilindi.

Boshqarishda biz, ko'proq iqtisodiy mexanizmga asoslanish bo'yicha vertikal boshqarish tizimini takomillashtirish nimalardan iborat bo'lishi kerak va mazkur mexanizm amalga oshirilishi uchun erishiladigan natijalar ham nazariy, ham amaliyotda nimalar berishi mumkin, degan masalaga aniqlik kiritishga harakat qildik.

Ma'lumki, Respublika Prezidenti tomonidan 2009 yil «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili», deb e'lon qilindi. Shundan kelib chiqqan holda, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan qishloqlardagi bandlik, ijtimoiy masalalar, qishloq xo'jaligi rivojlanishini qishloqlar rivojlanishi bilan qo'shib olib borishga katta e'tibor qaratildi. Bu qishloqlar rivojlanishi (qishloqlar infratuzilmasini rivojlantirish), qishloqda bozor infratuzilmalarini rivojlantirish hamda qishloq aholisining ijtimoiy himoyalash masalalarini o'z ichiga oladi. Prezident I.A.Karimov 2011 yilni «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili», deb e'lon qildi. Qishloqdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlar vakillari bu, birinchi navbatda, dehqon xo'jaliklari, ularning oila a'zolari hisoblanishadi. Ular asosan, o'z bizneslarini mahalliy resurslar va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, qo'shilgan qiymat yaratish bilan olib boradilar. Kichik biznesni tashkil qilishda bozor talablari o'rganilishi, mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha kooperativlar tashkil etish, ular ma'lum yo'nalishlarga ixtisoslashishi va axborotga ega bo'lishlari muhim masalalardan hisoblanadi.

Respublika Prezidenti tomonidan fermer xo'jaliklarini modernizatsiyalash vazifasi ilgari surildi, bu esa, o'z navbatida, investitsiyalar jalb qilinishiga bog'liq. Shuning uchun ichki investitsiya (xo'jaliklarning o'z mablag'lari hisobiga), shuningdek, tashqi investitsiya (investitsion loyihalar asosida jalb qilish) masalalariga yetarlicha e'tibor berish lozimligini bildiradi. Shularni hisobga olganda, fermer xo'jaliklarining boshqarish tizimi yanada takomillashtirishni talab etadi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida oziq-ovqat xavfsizligi masalalariga keng miqyosda yondashilmoqda. Aholini o'zimizda yetishtirilayotgan mahsulotlar bilan to'laroq ta'minlash, ichki bozorning oziq-ovqat mahsulot turlari hajmini

muntazam ravishda o'rganib borish, ortiqchasini eksportga chiqarish, yetishmayotgan turlari import hajmini aniqlash, sifatsiz import mahsulotlari kirib kelishining oldini olish kabi masalalar bugungi kunning asosiy vazifalaridan biriga aylanishi kerak.

Biz, respublikamizda 2012-2015 yillar davomida qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish hajmlarini bashorat qilib chiqdik. Ma'lumki, bashorat qilishning iqtisodiy matematik modellarining ko'p omilli korrelyatsion-regression usullari, ekspertlar va ekstrapolyatsiya usullari mavjud (10-jadval).

10-jadval

Respublikada asosiy turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtirish bashorati ko'rsatkichlari dinamikasi (2012-2015 yillar, ming tonna hisobida)²⁵

Mahsulot turlari	2010 hisobot yili	2012	2013	2014	2015
g'alla	7200	7358,4	7516,8	7675,2	7833,6
Sabzavot	6346,4	6981	7615,6	8250,2	8884,8
kartoshka	1692,9	1828,3	1963,7	2099,1	2234,5
Meva	1710,4	1881,4	2052,4	2223,5	2394,5
Uzum	987,4	1046,6	1105,8	1165	1224,2
go'sht	1461,4	1549	1636,6	1724,2	1811,8
Sut	5802	6150,1	6498,2	6846,3	7194,4

Yuqoridagi jadval ma'lumotlarida keltirilgan bashorat ko'rsatkichlariga erishish uchun avvalo, respublikada qishloq xo'jaligi ekinlari almashlab ekilishini jadallashtirish va takomillashtirish lozim. Ekinlarni almashlab ekish, birinchidan, erlarning hosildorligini oshiradi, ikkinchidan esa, mahsulot yetishtirish unumdorligi yuqori bo'ladi. Bu masalalarning alohida ketma-ketligi kompyuter dasturlarida ishlab chiqilishi va xo'jaliklarga joriy qilinishi zarur.

Respublika agrar sohasi korxonalarini, xususan fermer xo'jaliklari faoliyatini boshqarish mexanizmini takomillashtirish borasida iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tahlillar natijasi va xorijiy davlatlarda mayda (oilaviy) fermerlar

²⁵ Manba: Respublika Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

tajribasiga asoslangan holda bu muammoni quyidagicha hal qilish maqsadga muvofiq deya ta'kidlab o'tilgan. Ya'ni, dehqon xo'jaliklarini turli yo'nalishlardagi kooperativlarga ixtiyoriy ravishda birlashtirish orqali ularni o'zini-o'zi boshqarish tizimini mustahkamlash lozim. Bu esa, quyidagi afzalliklarni beradi:

- dehqon xo'jaliklarida mahsulot yetishtirish, uni qayta ishlash va sotish ishlari tartibga solinadi;

- kooperativlar dehqon xo'jaliklarini, ekinlarning yuqori hosilli urug' navlari bilan ta'minlashi yo'lga qo'yiladi;

- texnika va asosiy fondlarni birlashtirish orqali o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish darajasi ko'tariladi, mahsulot tannarxi arzonlashadi, sifati va tovarlik darajasi ko'tariladi;

- resurslar ta'minoti yaxshilanadi, kredit olish va kreditni qaytarish imkoniyati oshadi;

- mahsulotni saralash, qadoqlash, tashish va saqlash infratuzilmalarini yaratish va ulardan samarali foydalanish imkoniyati ko'tariladi, mahsulotni ichki va tashqi bozorlarda yuqori narxlarda (ho'l va qayta ishlangan holda) sotish hisobiga qo'shimcha qiymat yaratiladi, dehqonlar daromadi oshadi;

- kooperativlar dehqon xo'jaliklari bilan davlat organlari o'rtasida bog'lovchi bo'g'in sifatida davlat va dehqon xo'jaliklari manfaatlari bir-biriga mos kelishini ta'minlaydi va dehqon xo'jaliklari manfaatlarini himoya qiluvchi nodavlat tizimi vazifasini bajaradi.

Bundan tashqari, kelajakda dehqon xo'jaliklarini mayda fermer xo'jaliklariga aylanishiga asos yaratiladi. Shularni e'tiborga olgan holda, iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida dehqon xo'jaliklari faoliyatini yaxshilash (ularga qo'shimcha er uchastkalari berish, ularga me'yor (kvota) bo'yicha mahsulot etishtirish imkoniyatini yaratish, resurslar ta'minoti, shu jumladan, kreditlar bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirish va nihoyat, kelajakda kichik (oilaviy) fermer xo'jaliklariga aylanishi) masalalari ilmiy asoslangan ravishda hal etiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda qishloq xo'jaligini boshqarish fermer xo'jaligi jamoa a'zolari mehnatini maqsadga muvofiq tashkil etishga qaratilgandir. U ishlab chiqarish jarayonining vaqt va makonda uyg'unlashgan tarzda rivojlanishini va ma'lum sharoitda mo'ljalidagi mahsulotni ishlab chiqarib, kam xarajat qilishni nazarda tutadi. Ishlab chiqarish jarayonida texnika, aylanma mablag'lar, er, suv resurslaridan oqilona foydalanish ko'pincha fermer xo'jaligi jamoa a'zolari mehnatini qay darajada tashkil etilishiga bog'liq. Shuni inobatga olganda, mehnat taqsimotiga asoslangan ishlab chiqarish kooperatsiyasini kengaytirish samarali hisoblanadi.

Shuningdek, fermer xo'jaliklarini ilmiy boshqarish izchil qarorlar qabul qilish va ularning hayotiyiligini ta'minlash orqali amalga oshiriladi. Qarorlar mohiyati jihatdan bir-biridan farq qiladi va xo'jalik faoliyatining turli jabhalaridagi muammolarni yechishga qaratilgan bo'ladi. Qarorlar axborotlar tizimi orqali shakllanadi.

Fermerlar mehnatini ilmiy tashkil etishda mutanosiblik tamoyiliga amal qilish, ya'ni ishlab chiqarishni boshqarishda bajariladigan ishlarni rejalashtirish muhimdir. Bu fermer bajaradigan barcha boshqaruv vazifalari o'rtasidagi aloqadorlikni va mutanosiblikni ta'minlaydi, vazifalarni mo'ljallangan muddatda bajarish imkonini beradi. Mutanosiblik fermer bajaradigan vazifalarning optimal hajmini aniqlash va mehnat vositalari bilan ta'minlash orqali amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, respublikada fermer xo'jaliklarining rivojlanishi qishloq aholisini ish bilan ta'minlashga ijobiy ta'sir etmoqda. Fermerlarning o'z xo'jalik faoliyatini samarali va mustaqil yuritishdan manfaatdor bo'lishi mulkdan oqilona foydalanib, barqaror rivojlanish yo'lini tanlashi, ekinlar hosildorligining o'sib borishini ta'minlashi, istiqbolda o'z mavqeini yanada mustahkamlab borish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, kelajakda, fermer xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi asosiy xo'jalik sub'ektlari

sifatida, barqaror rivojlanish bosqichiga kirish uchun puxta zamin yaratib berilmoqda.

O'zbekistonda agrar islohotlarni amalga oshirishning hozirgi bosqichida, ko'p ukladli iqtisodiyot rivojlanayotgan davrda fermerlar kooperatsiyasining kengayishini ta'minlash eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shuni hisobga olib, respublikamizda fermer xo'jaliklari kooperatsiyasini rivojlantirish, xorijdagi qishloq xo'jaligi kooperatsiyalari faoliyati tajribasini o'rganish va turli xil kooperatsiyaga asoslangan uyushma (birlashma)larni tashkil etish bo'yicha bir qator ishlar olib borilmoqda.

Shu bilan bir qatorda fermer xo'jaliklari kooperatsiyasini tashkil etish hamda dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash hamda qishloq xo'jalik texnikalarini sotib olish, sotish, ta'mirlash va sotishdan keyingi xizmat ko'rsatish sohasida kooperatsiyalarini ham tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu esa o'z navbatida qishloq xo'jalik mahsulotlari nobudgarchiligini oldini oladi va tayyor mahsulotlar turini ko'paytirishga imkon yaratadi, tashish xarajatlarini kamaytirib, qishloqda mehnatga layoqatli odamlarning ish bilan bandligini ta'minlaydi.

Fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatish maqsadida tashkil etilgan infratuzilma ob'ektlari faoliyatiga oid iqtisodiy munosabatlarda kamchiliklar mavjud. Xususan, muayyan infratuzilma ob'ektini tashkil etish mas'ul tashkilot tomonidan katta mablag' sarflashi, aksariyat holatda infratuzilmalar uzoq masofada joylashgani (asosan tuman va viloyat markazlarida), buyurtmachilar (fermerlar) va moddiy-texnika vositalarini yetkazib beruvchi shoxobchalar o'rtasida hisob-kitob mexanizmlarining takomillashmagani hamda tuzilgan shartnomalarning bajarilmasligi va boshqalar. Bu nafaqat fermer xo'jaliklarining iqtisodiy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib qolmasdan, balki infratuzilma ob'ektlarining daromadi kamayib, moliyaviy ahvoli yomonlashib, o'z faoliyatini tugatishga olib keladi. Shu bois, istiqbolda fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalar muassasalarini ilmiy ishda tavsiya etilgan prognozlar negizida yetarli darajada tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Istiqbolda fermer xo'jaliklari va ularga xizmat ko'rsatadigan bozor infratuzilma ob'ektlari o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish va takomillashtirish yo'nalishida asosiy vazifa - me'yoriy va miqdoriy ko'rsatkichlardan foydalanishdir. Chunki bu ko'rsatkichlar alohida hududlarni real holatini ko'rsatib berib, ushbu hududning ehtiyoj va talablaridan kelib chiqqan holda tashkil etilishi lozim bo'lgan infratuzilma ob'ektlarini aniqlashga yordam beradi.

Qishloqda bozor infratuzilmalarining istiqbolda yanada samarali faoliyat yuritishi uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

birinchidan, fermerlarni qo'llab-quvvatlash, jumladan moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, fermerlarga xizmat ko'rsatadigan infratuzilma muassasalarining xizmat ko'rsatish sifatini oshirish;

ikkinchidan, qishloqda bozor infratuzilmalari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish;

uchinchidan, qishloqda infratuzilma ob'ektlariga kadrlar tayyorlash va ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish hamda infratuzilmalarni rivojlantirishning zamonaviy texnik va iqtisodiy siyosatini shakllantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: «O'zbekiston», 2008. – B. 40.

2. O'zbekiston Respublikasining «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonuni. – T., 2004 yil, 26 avgust // «NORMA» axborot-qidiruv tizimi.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fermer xo'jaliklarini qayta tashkil etish va ularning yer maydonlarini optimallashtirishda qonunchilikka rioya etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4301-sonli farmoni. – 2011 yil, 18 aprel // «NORMA» axborot-qidiruv tizimi.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tuzilmasini yanada takomillashtirish va boshqaruv xodimlari sonini maqbullashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1444-sonli qarori. – 2010 yil, 20 dekabr // «NORMA» axborot-qidiruv tizimi.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1041-sonli qarori. – 2009 yil, 20 yanvar // «NORMA» axborot-qidiruv tizimi.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturini kuchga kiritish to'g'risidagi PQ-1046-sonli qarori. – 2009 yil, 26 yanvar // «NORMA» axborot-qidiruv tizimi.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollar ko'paytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 308-sonli qarori. – 2006 yil, 23 mart // «NORMA» axborot-qidiruv tizimi.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida»gi PF-3226-sonli farmoni. – 2003 yil, 24 mart // «NORMA» axborot-qidiruv tizimi.

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar

to'g'risida»gi qarori. – 1994 yil, 23 fevral. – № 88. // Xalq so'zi. 1994 yil, 24 fevral.

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish va majburiyatlar bajarilishi uchun tomonlarning javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 383sonli qarori. – 2003 yil, 4 sentyabr// «NORMA» axborot-qidiruv tizimi.

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2005-2007 yillarda fermer xo'jaliklarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 607-sonli qarori. – 2004 yil, 24 dekabr// «NORMA» axborot-qidiruv tizimi.

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2006-2010 yillar davrida shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklari chora-tadbirlari to'g'risida»gi 67-sonli qarori. – 2006 yil, 21 aprel // «NORMA» axborot-qidiruv tizimi.

13. Karimov I.A. 2012 yilda respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi// Xalq so'zi. 2013 yil, 19 yanvar.

14.

15. Karimov I.A. Barcha islohotlar va o'zgarishlarning asosiy maqsadi – inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash // Xalq so'zi. 2008 yil, 9 fevral.

16. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. – №14 (5434). 2012 yil, 20 yanvar.

17. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. –T.: «O'zbekiston», 2010. – B. 65.

18. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi // Xalq so'zi. – № 16 (5183). 2011 yil, 22 yanvar.
19. Abdug'aniev A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. – T.: «Adabiyot» jamg'armasi. 2007. – B. 340.
20. Axunova G.N., Yo'ldoshev N., Qo'ldoshev E. Menejment asoslari. – T.: «Iqtisodiyot», 2008. – B. 6.
21. Alimov O.K. Korxonalar boshqaruvchilarida liderlik xususiyatlarini shakllantirish va rivojlantirish: i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 2008. – B. 9 .
22. Abdullayev O., Muhitdinov D., Tog'ayev A. Agrosanoat kompleksini bozor iqtisodiyotiga o'tkazish muammolari // Monografiya – T.: TDIU. – B. 92.
23. Abdurahmonov Q.H., Imomov V.A. O'zbekistonda mehnat potentsialidan samarali foydalanish va uni boshqarish. Monografiya. – T.: Akademiya, 2008. – B. 224.
24. Алтухов И.А., Девяткина Л.Н. Становление фермерства в России // Аграрная наука. – М., 2000. – № 8. – С. 2-3.
25. Akramov B.A. va boshqalar. Qishloqda fermer xo'jaliklarini yuzaga kelishi va rivojlanishining asosiy tamoyillarini belgilash: uslubiy qo'llanma. – T., 2007. – B. 23.
26. Abdullayev A., Aybeshov X. Fermer xo'jaligi iqtisodi. – T.: «Aloqachi», 2008. – B. 172.
27. Balabanov I.T. Menejment. – T., «Sharq», 2001. – B. 208.
28. Bozorov T., Najmiddinov S., Tursunov A. Dehqon va fermer xo'jaliklarida shartnoma munosabatlari. – T., «Sharq», 2002. – B. 40.
29. Bekmurodov A.Sh., Xonazarov K.X. «Nezavisimiy Uzbekistan». – T., «Uzbekistan», 2002. – S. 401.
30. Burxonov A.X. Turli mulkchilik shaklidagi qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini oshirish. Dis. iqt. fan. nom. – T.: O'zBIITI, 2000. – B. 117.

31. Баккет М. Фермерское производство: организация, управление, анализ. – М.: Агропромиздат, 2002. – С. 470.
32. Berkinov B., Tashmatov R.X. O'zbekistonda fermer xo'jaliklar va ularga xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmalarni rivojlantirish istiqboli. Ilmiy-omtabor nashr. – T.: TDIU, 2008. – B. 43.
33. Буробкин И.Н., Попова Е.А. Экономические отношения в системе агропромышленной интеграции // Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий. – М., 2004. - № 1. – С. 21-24.
34. Баутин В.М. Понятие «инновация» как экономическая категория // Развитие инновационной деятельности в АПК: материалы международной научно-практической конференции. – М.: ФГНУ «Росинформагротех», 2003. – С. 251-253.
35. Буздалов И.Н. Аграрная реформа в России (концепции, опыт, перспективы). – М.: «Знание», 2000. – С. 325.
36. Vahobov A.V. Qishloq aholisi turmush darajasini oshirishda bank tizimining o'rni. «Qishloq taraqqiyoti va aholi turmush darajasini oshirishda bank-moliya tizimining o'rni mavzuidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari». – T.: «Moliya», 2009. – B. 22.
37. Дадабоев Ю.Т., Фармонов Т.Х., Тошматов К., Зайниддинов С. Краткосрочное кредитование фермерских хозяйств. Учебное пособие для вузов. – Т.: «Мехнат», 2004. – С. 191.
38. Jo'raev A. Agrar sohada islohotlarni yanada chuqurlashtirish muammolari va echimlari. –T.: «Mehnat», 2002. – B. 236.
39. Jo'raev A., Husanov R.H. Agrarnaya reforma: teoriya, praktika, problemi. –T.: «Uzbekistan», 2002. – S. 766.
40. Jo'raev A., Isomiddinov G', Namozov A. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirishning iqtisodiy va huquqiy asoslari // Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontseptsiyasi va respublikada fermerlikni rivojlantirish istiqbollari: 2005 yil 3 iyun, respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi ma'ruzalar to'plami. – T., 2005. – B. 10-15.

41. Зайнутдинов Ш., Эргашев Ф., Раҳимова Д., Сагдуллаев А., Парпиев О. Инновацион менежмент. Дарслик. –Т.: «Академия», 2005. – Б. 90.
42. Zaynutdinov Sh.N. va boshqalar. Menejment asoslari. – Т.: «Moliya», 2002. – В. 8.
43. Yo'ldoshev N.Q. Menejment. O'quv qo'llanma. – Т.: «Fan», 2004. – В. 65.
44. Yo'ldashev S.R. Qishloq xo'jalik korxonalarini asosiy fondlar bilan ta'minlashning shakl va uslublari. «Iqtisodiy islohotlarni erkinlashtirish va chuqurlashtirish sharoitida O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dolzarb muammolari» mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman ma'ruzalar to'plami. – Т., 27-28 may, 2004. – В. 94.
45. Yo'ldashev S.R. Agrar sohada investitsion jarayonlarni va asosiy fondlar bilan ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari. «Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish» mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman ma'ruzalar to'plami – Т., 2004. – В. 184.
46. Кадыров А.М., Дусматов Ф.Д. Инновационные инвестиционные фактори развития агропромышленного комплекса. –Т.: IEAN Руз, 2009. – С. 52.
47. Ли Чжоу, Лин Цфу, Цой Фан. Китайское чудо: экономическая реформа, стратегия развития. – М.: «Наука», 2001. – С. 68.
48. Muhitdinova U.S. Agrar sohadagi islohotlar // Jamiyat va boshqaruv. – Т., 2008. - № 2. – В. 45-46.
49. Murodov Ch., Xo'jaqulov X. Fermer xo'jaliklari barqaror rivojlanishining asosiy yo'nalishlari //Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontseptsiyasi, qonunchilikni takomillashtirish va respublikada fermerlikni rivojlantirish istiqbollari. – Т.: O'zBIITI, 2005. – В. 285.
50. Murodov Ch. O'zbekiston iqtisodiyotini erkinlashtirish sharoitida bozor infratuzilmasining rivojlanishi (agrar sektor misolida): i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoref. – Т., 2001. – В. 46.

51. Muqimov Z.M. Fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatish va moddiy-texnika ta'minoti tizimini takomillashtirish (Qashqadaryo viloyati misolida): i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 2009. – B. 24.
52. Mardanaqulov T.I. Mintaqada bozor infratuzilmasini rivojlanishi (Surxondaryo viloyati misolida): i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 2002. – B. 19.
53. Nazarova F. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida O'zbekiston agrar sektorini rivojlantirish istiqbollari: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 2001. – B. 31.
54. Nasirova K.A. Yirik ishlab chiqarish korxonalari qoshida kichik biznesni tashkil etish va boshqarish yo'llari: i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 2011. – B. 10.
55. Причинин Г.М. Управление агропромышленным комплексом. Опыт реализации продовольственной программы. – М.: «Знание», 2008. – С. 123, 128.
56. Po'latov R. Davlat tomonidan qishloq xo'jaligini boshqarishning huquqiy muammolari va echimlari. – T.: «Fan», 2004. – B. 120.
57. Rizaev M.T. Ekonomicheskaya reforma i problemi razvitiya APK Respubliki. –T.: «Xazina», 2003. – S. 50.
58. Rasulev M.R. Bozor iqtisodiyoti asoslari. Darslik. – T.: «O'zbekiston», 2005. – B. 380.
59. Rashitova N. Islohotlar davrida qishloq xo'jaligi tuzilmasining shakllanish printsiplari // Bozor, pul va kredit. – 2005. - № 8. – B. 36-39.
60. Suleymenov M. Amerika qishloq xo'jaligi. – T.: Abu Ali Ibn Sino, 2000. – B. 127.
61. Saydaxmedov O.A. «Taraqqiyot – aniq dasturga, mustahkam ishonchga bog'liq» // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. – Toshkent, 2009. - № 6. – B. 30-34.

62. Сайдахмедов О.А. «Продоволственное обеспечение – один из важных факторов экономического роста» // Экономика и финансы. – Москва, 2011.- № 5. – С. 28-29.

63. Tashmatov R.X. Fermer xo'jaliklari kooperatsiyasi va bozor infratuzilmalari rivojlanishini boshqarish: i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 2010. – B. 12.

64. TESIS-TEFAP. Fermer xo'jaligi menejmenti. – T.: «O'zbekiston», 2002. – B. 30.

65. Talibjanova V.I. O'zbekistonda erkin tadbirkorlik faoliyatining salohiyatini oshirish va uni boshqarish mexanizmlari: i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 2009. – B. 17.

66. Umurzoqov O'.P., Toshboev A.J., Toshboev A.A. Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2008. – B. 10, 13.

67. Umarov S.R. Qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanish: i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati: BMA – T., 2008. – B. 22.

68. Usmonov Sh. Qishloq xo'jaligi korxonalari to'liq fermer xo'jaligiga aylantirilgan tumanlarda boshqaruv tizimini takomillashtirish. «Agrar sohada islohotlarni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish muammolari va yechimlari» mavzusida seminar-munozara ma'ruzalar to'plami. – T.: «Mehnat», 2003. – B. 249.

69. Farmonov T.X. O'zbekistonda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish istiqbollari. - Monografiya. – T.: «Yangi asr avlodi», 2004. – B. 143.

70. Farmonov T.X. O'zbekiston Respublikasida fermer xo'jaligini tashkil etish va rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 2006. – B. 25.

71. Sharifxo'jaev M., Abdullayev Yo. Menejment. Darslik. – T.: «O'qituvchi», 2001. – B. 451.

72. Shodmonov E.Sh. O'zbekistonda agrar islohotlarni chuqurlashtirishda banklar faolligini oshirishning asosiy yo'nalishlari: i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – BMA, 2005. – B. 19.

73. Shokirov A.A. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorini shakllantirishda inson omilining o'rnini // Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida qishloq xo'jalik mahsulotlari bozorini shakllantirish muammolari ilmiy-amaliy konferentsiya ma'ruzalar to'plami.–T.: O'zBIITI, 2004. – B. 71-73.

74. Erkayev B.A., Karimova G.I., Abulqosimov O'P. Bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solish vositalari. – T.: «Sharq», 1996. – B. 64.

75. Юсупов Н.С. Аграрные реформы в Китае: достижение и проблемы. – Т.: «Фан», 2005. – С. 188.

76. Югай А.Б. Организационно-экономические механизмы управления развитием предприятий малого бизнеса. – Т.: «Фан», 2008. – С. 139, 204.

77. Yuldashev A.S. Qishloq xo'jaligi er fondining tarkibi va o'ziga xos xususiyatlari. «O'zbekiston iqtisodiyoti: erishilgan yutuqlar, muammolar va rivojlanish istiqbollari» mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – T., 2008. – B. 213-214.

78. Qosimov M., Abdusamatov X., Islomov A., Xudoyberganov N. O'zbekiston Fermer xo'jaliklari uyushmasi, OSCE Evropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti. «O'zbekistonda fermer xo'jaligini yuritish asoslari». – T.: «Voriz-Nashriyot», 2007. – B. 209.

79. Qobilov A.E. Fermer xo'jaliklari kooperatsiyasi shakllarini tanlash va baholash mezonlari. «O'zbekiston iqtisodiyoti: erishilgan yutuqlar, muammolar va rivojlanish istiqbollari» mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – T., 2008. – B. 142-143.

80. Qosimov M., Abdusamatov X., Ismoilov A., Xudoyberganov N. O'zbekistonda fermer xo'jaligini yuritish asoslari. – T.: «Voriz-Nashriyot», 2007. – B. 239.

81. G'ulomov S.S. Menejment. – T.: «Sharq», 2002. – B. 368.

82. G'ulomov S.S. va boshqalar. Tadbirkorlik va kichik biznes. – T.: «Mehnat», 2002. – B. 337.
83. Хусанов Р.Х. Аграрная реформа: теория, практика, проблемы. – Т.: «Узбекистан», 2001. – С. 51.
84. Хусанов Р.Х. Аграрная реформа: теория, практика, проблемы. – «Узбекистан», 1994. – С. 72
85. Husanov R.H. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida oila (jamo) pudrati. – T.: Qatortol –Kamolot, 1999. – B. 56.
86. Husanov R.H. Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlar va agrar iqtisodiyot. – T.: «Yangi asr avlodi», 2004. – B. 213.
87. Husanov R.H. Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me'yoriy hujjatlar to'plami. – T., 1998. - 1 tom. – B. 108.
88. Husanov R.H. Respublika agrar iqtisodiyotida fermer xo'jaliklarining o'rni va ularning barqaror rivojlanish kontsepsiyasi // Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontsepsiyasi. Qonunchilikni takomillashtirish va respublikada fermerlikni rivojlantirish istiqbollari. – T.: O'zBIITI, 2005. – B. 285.
89. Marketing Operations of dairy Cooperatives, 2002/RBS Research Report 201- United States department of Agriculture: Washington, 2004.
90. Cooperatives in the dairy industry/ Cooperatives information Reports Section 16 – United States department of Agriculture: Washington, 2002.

Internen saytlari

91. <http://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari ilmiy bazasi.
92. <http://www.gov.uz> – O'zbekiston Respublikasining hukumat portali.
93. <http://www.prezident.uz> – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati.
94. <http://www.ziyonet.uz> – Axborot ta'lim tarmog'i.
95. <http://www.agrointernet.org> – Agroportal.
96. <http://www.rurdev.gov> – USDA.